O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI”MODULI BO‘YICHA

Ma’ruza matnlari

Andijon 2024

“Tasdiqlayman”

VPYM O‘MM direktori-

_____M.Abdullayeva

“____”_____2024 yil

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM

METODIKALARI KAFEDRASI

ISHLAB CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH SHAKLIDAGI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI MALAKA OSHIRISH KURSI UCHUN “YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI”MODULI BO‘YICHA

*Ma’ruza matnlar*i

“KIRITILDI”

“Maktabgacha,boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri

_____ N.Karimova

2024- yil «____ » yanvar

“KELISHILDI”

O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

_____ O‘.Jabborov

2024- yil «____» yanvar

Ushbu ishchi ma’ruza matni kafedraning 2024 yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan hamda tasdiqga tavsiya etilgan

Andijon – 2024 yil

MUNDARIJA

I.	**KIRISH**	**4**
II.	**TEXNOLOGIK XARITA**	**6**
III.	**MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR**	**7**
IV.	**O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI**	**88**
V.	**ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI**	**90**
VI.	**TARQATMA MATERIALLAR**	**91**
VII.	**ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI**	**96**

II. KIRISH

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash.

Milliy ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablariga mos modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim – ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom inson qilib tarbiyalash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog xodimlarining nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ayni vaqtda aholi bandligi, va real daromadlarni izchil oshirish, aholini izchil ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholi ijtimoiy turmushi infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabilarni o‘z ichiga olgan davlat ijtimoiy siyosati bugungi kunda shiddat bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, shuni hisobga olgan holda, mamlakatda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan ijtimoiy siyosatni mazmunan boyitish va shu asosda maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston – 2030 strategiyasi “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan. Shuni hisobga olgan holda, mamlakatda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va uning samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan ijtimoiy siyosatni mazmunan boyitish va shu asosda maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uyg‘un rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Strategiyada belgilangan vazifalarni o‘rganish, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni tizimli tahlil qilishga, muammolarni har tomonlama idrok etishga yordam beradi.

Modulning maqsadi: Maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini fikrlash qobiliyati, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni idrok eta olish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar bo‘yicha nazariy tayyorgarligi, yuksak ma’naviyati va ma’rifatliligini oshirishdan iborat.

Kutilayotgan natijalar:

Tinglovchilar ushbu modul yakunida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar:

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va uning asosiy yo‘nalishlarining umumiy tasnifi va mazmun-mohiyatini;

xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashni;

mamlakatimizning kelajagini hal etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy siyosatda bayon etilgan yondashuvlar, amaliy fikr-mulohazalar, xulosa va takliflarning bugungi kundagi ahamiyatini;

yangi O‘zbekistonda “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishi ekanligi, xususan maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishning mazmun-mohiyati **bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.**

II. TEXNOLOGIK XARITA

Vaqt	Kichik mavzular	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati

80 daqiqa	**Yangi O‘zbekistonda amalga oshiralayotgan islohotlarning maqsadi va ustuvor yo‘nalishlari**			
40 daqiqa	O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati	Tinglovchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi. Ma’ruza	Faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar	Tinglaydi
40 daqiqa	“O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotini asosiy yunalishlarini takomillashtirish omili sifatida.	Ma’ruza, bahs-munozara	Faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar	Tinglaydi, o‘z fikrlarini bildiradi
80 daqiqa	**Ijtimoiy sohada davlat siyosatining takomillashib borishi va aholi farovonligini oshirish**			
40 daqiqa	Davlat dasturi da belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirish**.**	Tinglovchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi. Ma’ruza	Faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar	Tinglaydi
40 daqiqa	O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar “davlat inson uchun” tamoyilining mazmuni sifatida.	Ma’ruza, bahs-munozara	Faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar	Tinglaydi, o‘z fikrlarini bildiradi
80 daqiqa	**Ta’lim tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi.**			
40 daqiqa	Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va ta’lim sifati samaradorligini oshirish.	Tinglovchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi. “Aqliy hujum” “Davra suhbati” metodi	Slayd, savollar, tarqatma materiallar	Fikr-mulohazalarini bildiradilar, savol-javoblarda faol ishtirok etadilar.
40 daqiqa	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifati samaradorligini takomillashtirish.	“Davra suhbati”, Slaydlarni Power Point tartibida namoyish qilish va sharhlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy masalalar bayon qilinadi	Slayd, savollar, tarqatma materiallar	Fikr-mulohazalarini bildiradilar, savol-javoblarda faol ishtirok etadilar.

III. MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR

1-Mavzu: Yangi O‘zbekistonda amalga oshiralayotgan islohotlarning maqsadi va ustuvor yo‘nalishlari

Reja

1. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotini asosiy yunalishlarini takomillashtirish omili sifatida.

Yangi O‘zbekiston strategiyasining mustahkam tayanchi va suyanchi bo‘ladigan tarixiy-ma’naviy omil, ya’ni bizning eng katta boyligimiz - xalqimizning ulkan madaniy merosi, intellektual salohiyatining mavjudligidir.

Jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilayotgan ushbu ilmiy-ma’naviy meros dunyo madaniyati va ma’naviyati taraqqiyotiga bebaho hissa bo‘lib qo‘shilgani ma’lum. Aynan ana shu omil Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishda, ilm-fan, ma’naviy va madaniy faoliyat, ta’lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo‘lmoqda.

O‘zbekistondagi bag‘rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo‘lib yashayotgan millat va elat vakillariga o‘z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizdagi ta’lim maskanlarida ingliz, rus, nemis, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, turk, xitoy, yapon, koreys, hind va urdu tillari chuqur o‘qitilayotgani bu an’analar davom etayotganining yorqin ifodasidir. Biz yoshlarimizning jahon tillarini egallashga bo‘lgan ulkan qiziqish va intilishlarini har doim qo‘llab-quvvatlaymiz.

Bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish, jahon ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi xalqaro markazi qad rostlamoqda.

Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asari o‘z ahamiyatiga ko‘ra muqaddas Qur’oni karimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadigan mo‘tabar kitob sifatida islom olamida tan olingan. Bu ulug‘ zotning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, yosh avlodga bezavol yetkazish maqsadida Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida Imom Termiziy nomidagi, Samarqandda Imom Moturidiy nomidagi ilmiy-ma’rifiy tadqiqot markazlari faoliyat olib bormoqda.

Din sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi nafaqat yurtimiz, balki musulmon olamidagi nufuzli oliy ta’lim muassasasi sifatida e’tirof etilgan.

Ta’kidlash lozimki, Vatanimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan bugungi kunda biz uchun qadimiy tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, asrab-avaylash va targ‘ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlaridagi shu yo‘lda birga ishlash istagini bildirgan olimlar va mutaxassislarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz. Yangi O‘zbekistonni barpo etishning mintaqaviy va umumbashariy omillari borligi ham shubhasiz.

Ma’lumki, azaldan Buyuk ipak yo‘li, Buyuk Hind savdo yo‘llarida joylashgan Markaziy Osiyo geostrategik o‘rnashuviga ko‘ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi muhim jarayonlar markazida bo‘lib kelgan. Bizning mintaqamiz Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘laydigan o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu zaminda dunyo sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk gumanist olimlar, mutafakkir va shoirlar yashab ijod qilgan. Bu yerda ulkan tabiiy zahiralar, katta insoniy salohiyat mavjud. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo dunyoning e’tibor markazida bo‘lib, bu hududda raqobatdosh qudratli davlatlarning manfaatlari o‘zaro kesishib keladi.

Bu haqda gapirganda shuni aytish lozimki, zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashda “yumshoq kuch” sifatida ta’limning rolini oshirishdagi sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Bizning bu boradagi tashabbuslarimiz BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasi va Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyasini qabul qilish yo‘lidagi harakatimizda yaqqol namoyon bo‘ldi.

Bu sohadagi tajriba biz uchun o‘ta muhim: “Bizni madaniyat bog‘lab turadi va u insoniyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi”, degan fikr nechog‘lik haqiqat ekanligini bugungi kunning o‘zi ko‘rsatib turibdi.

Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil qilinishi ham ana shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Biz xalqaro tashkilotlar bilan O‘zbekistondagi mavjud me’moriy yodgorliklarni asrash yo‘lidagi hamkorligimizni kengaytirishda davom etamiz. Bugun O‘zbekiston dunyoga ochilmoqda, jahon maydonida butun bo‘y-basti bilan namoyon bo‘lmoqda.

Ishonchimiz komilki, dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz, do‘stlik

aloqalari va ko‘pqirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga, yurtimizda yangi sivilizatsion yuksalish uchun ham xizmat qiladi.

Mamlakatimiz obro‘-e’tiborining o‘sishi, xalqaro maydonda bir qator tashabbuslarimizning qabul qilinishi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi faoliyatini yanada keng va jadal olib borishi uchun yangi imkoniyat tug‘dirmoqda.

Biz xorijiy mamlakatlar va xalqaro tuzilmalar bilan amaliy muloqotni rivojlantirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirishga bundan buyon ham katta ahamiyat qaratamiz.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va jahonning yetakchi davlatlari bilan strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini izchil mustahkamlab boramiz.

Yana bir muhim masalaga e’tibor qaratilishi zarur. Aholi daromadlarini oshirish, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak.

Bizning tashqi bozorlarga chiqaradigan mahsulotlarimizning 80 foizi Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Rossiyaning tranzit yo‘laklari orqali o‘tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo‘yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ochiq bozor mahsulot sifatini oshirish, tannarxini pasaytirish, yangi texnologiyalar olib kelishni talab qiladi, bozor islohotlarini jadal rivojlantiradi. Shu sababli biz jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang bo‘lishimiz lozim.

Bu borada muloqot va raqobatga tayyor bo‘lish uchun esa nafaqat rahbarlar, balki tadbirkor va ishbilarmonlar, barcha bo‘g‘indagi menejerlar o‘z ustida tinimsiz ishlashi shart.

Ana shu omillarni inobatga olib hamda Rossiya va Qozog‘istonga ishlash uchun borgan fuqarolarimizga qulay sharoit yaratish maqsadida bugungi kunda O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish bilan bog‘liq masalalarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Albatta, biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ziyolilarimizga katta ishonch bilan qaraymiz. Shuning uchun bu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishni o‘zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko‘rishimiz darkor. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirib kelinmoqda.

Ma’muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad - ixcham va professional ijro organlari tizimini, zamonaviy menejmentga asoslangan boshqaruv

tizimini yaratishdan iborat[1]. Shu bilan birga, O‘zbekistan Respublikasi o‘z hududida ham, mamlakat tashqarisida ham o‘z fuqarolarining huquqiy himoyasini kafolatlashi haqidagi konstitutsiyaviy qoidaning ijrosini so‘zsiz ta’minlashi shartligi ham barchamizga ayon bo‘lmog‘i zarur. Afsuski, faqat keyingi yillardagina chet ellarda mehnat qilayotgan fuqarolarimizning huquqlarini himoya qilish masalasiga e’tibor berila boshlandi. Ammo bu borada yaqin kelajakda amalga oshiradigan ishlarimiz ko‘pligi yoddan chiqmasligi lozim.

Bugun hayotning o‘zi bizdan davlat xizmati tizimini yanada samarali tashkil etish, ushbu yo‘nalishda ham professional, tezkor tuzilmalarni shakllantirishni talab qilmoqda. Shu jihatdan, islohotlarimizning maqsad-muddaolarini yaxshi anglaydigan, xalqimizning Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshishiga chin dildan yordam beradigan, halol-pok kadrlarni tarbiyalash vazifasi yanada dolzarblashmoqda. Bularning barchasi davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga doir islohotlarimizning istiqboldagi eng ustuvor yo‘nalishlari nimalardan iborat ekanini anglash imkonini beradi.

Barchamizga ayonki, islohot - bu yangilanish va o‘zgarish, ishlarning natijadorligi uchun mas’uliyatni yanada teranroq his qilish degani. Islohotlar ijobiy natija berishi uchun, avvalo, boshqaruv tizimi, rahbarlarimiz va odamlarimiz o‘zgarishi kerak. Insonning dunyoqarashi o‘zgarsa, jamiyat o‘zgaradi, yangilanadi va shu asnoda Yangi O‘zbekiston poydevori mustahkamlandi. Bu maqsadga erishish uchun, birinchi navbatda, barcha darajadagi rahbarlar va xalq deputatlari, barcha yetakchilar o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik asosida tashkil etishlarini bugun hayotning o‘zi kun tartibiga keskin qilib qo‘ymoqda.

Afsuski, haligacha ham ko‘pgina vazirlik va idoralar faoliyatida qarorlar qabul qilish haddan tashqari markazlashgan holda qolmoqda. Ba’zilarining vazifalari aniq va to‘liq bajarilmasligi, amaliy faoliyatda bir-birini takrorlash holatlari mavjud. Ko‘pchilik idoralar, ayniqsa, o‘rta bo‘g‘in rahbarlari biror-bir zarur masalani hal qilish uchun faollik va tashabbus ko‘rsata olmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, davlat boshqaruvini markazlashtirish amaliyotidan voz kechish zarurligi, ko‘pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o‘tkazish jarayonini davom ettirish kerakligini anglatadi. Shu tufayli joylarda - tuman, shahar va viloyat hokimliklarida investitsiyalarni faol jalb etish bo‘yicha hokim o‘rinbosarlari lavozimi joriy etilgani bejiz emas. Hududiy boshqaruv organlarining budjet mablag‘larini shakllantirish, qo‘shimcha zahiralarni yaratish bo‘yicha soliq moliya va iqtisodiyot sohalari organlarining mas’uliyatini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Budjet tizimini isloh qilish sohasida mahalliy

[1] Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. –T.: “O‘zbekiston”,

hokimiyat organlari vakolatlari yanada kengaytirildi. Endi har bir hudud rahbari berilgan imkoniyatlardan foydalanib, mas’uliyatni to‘la o‘z zimmasiga olishi, “o‘z aravasini o‘zi tortishi” kerak. Shu munosabat bilan deputat va senatorlarni o‘zlari saylangan hududdagi muammolar, tegishli vazirlik va hokimliklar tomonidan qay darajada hal etilayotganini doimiy o‘rganib, nazorat qilib borishi zarur.

Boshqaruv idoralarining hududiy masalalarni hal qilishdagi mas’uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida kelgusida har bir vazirlik o‘z ishini tuman, shahar, qishloq va mahalla kesimida rejalashtiradi va tashkil etadi. Vazirlar va ularning o‘rinbosarlari faoliyatiga joylarda amalda qanday o‘zgarish bo‘lganiga qarab baho beriladi.

Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar, o‘zlarining quyi tizim rahbarlari va xodimlarini yangicha talablar va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali ishlashga o‘rgatish va malakasini muntazam oshirib borish uchun mas’ul etib belgilanadi. Davlat boshqaruv organlari va Vazirlar Mahkamasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikda ish olib borish bo‘yicha prinsip va mexanizmlarni qayta ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Har bir vazirlik o‘ziga ishonib topshirilgan sohada davlat siyosatini amalga oshirishni ta’minlashi va yakuniy natija uchun to‘liq javobgar bo‘lishi shart. Vazirliklar bilan teng maqomda faoliyat olib borayotgan, hukumat va parlament bilan bevosita hamkorlik qilayotgan agentliklar, qo‘mita, inspeksiya va markazlarni tegishli vazirliklarga bo‘ysundirish talab etiladi.

Shuni nazarda tutgan holda, hukumatning vazifa va tarkibiy tuzilmasini yana bir bor tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va optimallashtirish lozim. Bunday o‘zgarishlar davlat va xo‘jalik ishi sohasida deyarli bir xil vazifalarni bajarayotgan yuzdan ortiq boshqaruv organlari sonini tubdan qisqartirish imkonini beradi.

Bu yo‘nalishdagi muhim o‘zgarishlardan biri - hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga mas’ul bo‘lgan rahbarlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha vakolatlarni tuman va shahar hokimlariga to‘liq o‘tkazishdan iborat bo‘ldi. Tibbiyot birlashmasi, xalq ta’limi, iqtisodiyot, moliya bo‘limlari, soliq inspeksiyasi va boshqa tuzilmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va ozod etish tuman hokimi tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani berishi mumkin. Joylarda kadrlarni tanlash, tayinlash va lavozimdan ozod etish bilan bog‘liq vakolatlar qayta ko‘rib chiqildi. Ayni paytda mahalliy rahbarlarga bunday keng vakolat va mustaqillik berish bilan birga, yakuniy natija uchun ularning javobgarligini tubdan oshirishimiz zarur. Yana bir muhim vazifa - hokimlarning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida ajratib qo‘yish bilan bog‘liq. Keyingi paytda yurtimizda Xalq deputatlari kengashlarining roli, xalq noiblarining vakolatlari tubdan oshirildi. Siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyat idoralarini shakllantirish borasidagi vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi, deputatlik nazorati esa mustahkamlandi.

Biroq ochiq tan olishimiz lozim, hokimlarning ham mahalliy kengashlarga, ham ijro hokimiyatiga rahbarlik qilishi eng rivojlangan davlatlarga xos demokratik prinsiplarga mos keladi, deb bo‘lmaydi. Hammaga ma’lum, hokimlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan mahalliy kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Hokimlarning hududlarda budjetni ijro etish bo‘yicha faoliyati ustidan xalqimiz o‘z vakillari orqali tegishli nazoratni amalga oshirishiga imkoniyat yaratib berish lozim. Ya’ni, hokimliklar va mahalliy kengashlar uchun alohida tizimlarni shakllantirish, hokimlarning hisobdorligini belgilab qo‘yish bizning bu sohadagi eng muhim vazifamiz bo‘lib qolishi zarur. Bugungi sharoitda aynan ochiqlik va hisob berish mas’uliyati davlat apparatini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Yana bir masala - tuman, shahar va mahalla boshqaruvida samaradorlikni oshirish uchun xodimlar soni va maoshini hududning o‘ziga xosligi va ish hajmidan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiqligini bugungi amaliyot yaqqol ko‘rsatib turibdi. Vaholanki, bizda ko‘pgina tumanlarda boshqaruv xodimlari soni va miqdori bir-biridan keskin farq qilsa-da, lekin ularning ish haqi deyarli bir xil.

Internet tarmog‘i vositasida parlament va deputat so‘rovini shakllantirish amaliyotining yo‘lga qo‘yilishi ham keyingi yillarning yangiligidir. Bu orqali biz aholini qiynayotgan masalalarning parlamentda ko‘rib chiqilishiga erishamiz.

Bugungi kunga kelib, odamlarni tashvishga solayotgan kundalik muammolarni hal etish maqsadida deputatlar har oyning oxirgi haftasida o‘z saylov okrugida bo‘lishiga doir tartib yo‘lga qo‘yildi. Albatta, bu ishlarni tizimli ravishda davom ettirish kerak.

Strategiyamizda nazarda tutilayotgan mazkur sohadagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

zamonaviy menejment usullarini va korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, autsorsing dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha ishlarni yanada kengroq davom ettirish lozim. Bunda biz davlat xizmatiga zamonaviy fikrlaydigan, yangicha tafakkurga ega, boshqaruvning innovatsion, yanada moslashuvchan modellarini, jumladan, loyiha modelini(Agile, Scrum, Kanban, PRINCE2 va boshqalar) ishlab chiqish va joriy etishga layoqatli yetuk mutaxassislar, siyosiy partiyalar, xususiy sektor vakillarini, turli xorijiy ekspertlarni jalb qilishni ko‘zda tutuvchi yangi kadrlar siyosatini amalga oshirish zarurligini nazarda tutmoqdamiz;

-barcha davlat xizmatlarini BPR (Business process reengineering - Biznes jarayonlarini qayta tashkil etish) tizimi asosida soddalashtirish, davlat xizmatlarini ko‘rsatishda zamonaviy axborot tizimlarini keng joriy etish;

-davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish, budjet mablag‘lari tasarruf qilinishining

shaffofligi, davlat mulkidan foydalanishning samaradorligi va aniq maqsadga yo‘naltirilgani kabi muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash;

-iqtisodiyot tarmoqlariga ma’muriy ta’sirlarni qisqartirish va bozor mexanizmlaridan keng foydalanish, ya’ni, davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishni cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o‘tkazish;

-hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o‘ta markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish, davlat xizmatlarini bevosita quyi bo‘g‘inlarda ko‘rsatish, mahalliy hokimiyat idoralari uchun moliyaviy va boshqa imkoniyatlarni yanada kengaytirish;

-davlat boshqaruvi tizimining hududlar va sohalar bo‘yicha samarali va sifatli faoliyat yuritishi borasida mavjud tartib-taomillarni optimallashtirish va soddalashtirish, boshqaruvning innovatsion shakllarini joriy etish lozim.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining mahalliy hokimliklardan haqiqiy mustaqilligini ta’minlash, ulardagi siyosiy partiyalar guruhlari rolini yanada kuchaytirish va vakolatlarini kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat beriladi. Aholimiz, fuqarolarning siyosiy-huquqiy saviyasini oshirib borish bilan hokimlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylash tizimiga o‘tiladi. Hokimlarning tegishli vakillik hokimiyatini boshqarish vakolati bekor qilinadi. Shu munosabat bilan “Xalq deputatlari Kengashlari to‘g‘risida” va “Hokimning maqomi to‘g‘risida” gi qonunlarni qabul qilish zarur. Bularning barchasi samarali va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi va takomillashuvi uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi.

Asosiy maqsadimiz - O‘zbekistonning dunyodagi davlat boshqaruvi sifati yuqori bo‘lgan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilgan 30 ta davlati qatoriga kirishini ta’minlashdan iborat. Yangi O‘zbekiston strategiyasi ijro etuvchi hokimiyatni tom ma’noda xalqqa xizmat qiluvchi organga aylantirishni nazarda tutadi.

Davlat xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish hamda xodimlarning kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlari asosida xizmat pog‘onalaridan ko‘tarilishi, davlat xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha shaffof mexanizmlari joriy etiladi hamda ularning aniq vazifalari belgilanadi. Menejmentning zamonaviy usullari va korporativ boshqaruv tamoyillari joriy etilib, autsorsing dasturlari amalga oshiriladi. Bizning mazkur masaladagi qat’iy pozitsiyamiz shundan iboratki, davlat xizmati haqiqiy professionallar maktabi bo‘lib, bu tizimda faoliyati va davlat xizmatida o‘z kasbining chinakam ustalari ishlashi shart.

Yangi O‘zbekistonda boshqaruv tizimining hududlar va sohalar bo‘yicha samarali va sifatli faoliyat yuritishi - jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning asosiy sharti va garovidir**.**

Islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash lozim. Amaldagi nazorat tizimi esa, afsuski, ko‘proq formal tusga ega bo‘lib, ijroni tashkil etishdagi muammolarni aniqlash va hal qilishga yo‘naltirilmayapti. Shuning uchun endilikda bu borada yangicha ishlash tizimi joriy etilmoqda. Bu borada Qonunchilik palatasi har bir qonun loyihasi bo‘yicha xolis bahs-munozara va tortishuvlar minbariga, turli ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi kurash maydoniga, chinakam demokratiya maktabiga aylanishi zarur. Ayni vaqtda hayotning o‘zi, O‘zbekistonning jadal taraqqiyoti bu boradagi faoliyatimizni yangi sifat bosqichiga olib chiqishni talab etmoqda. Jahondagi ilg‘or tajribalar asosida partiyalar o‘z siyosiy manfaatlari, o‘z elektorati manfaatlarini ifoda etadigan qonunlarni qabul qilish uchun parlamentda qizg‘in bahs olib borishlari kerak. Buning uchun parlamentda ko‘pchilikni tashkil etadigan partiya va unga muxolifatda bo‘lgan partiyalar o‘rtasida sog‘lom raqobat bo‘lishi lozim. Albatta, Qonunchilik palatasida ham har bir fraksiya o‘zini muxolifat deb e’lon qilishi mumkin. Bu fraksiya qonun birinchi urinishda ko‘rib chiqilgunga qadar mazkur masala bo‘yicha qonunning muqobil tahririni kiritish huquqiga ega ekani belgilangan. Lekin, tan olishimiz kerakki, bu institut shu paytgacha samarali ishlagani yo‘q. Bunda deputatlar tashabbus ko‘rsatishi uchun o‘z ustida muntazam ishlashi, har bir soha bo‘yicha qabul qilingan qarorda xalq manfaatlari ta’minlanishi uchun mustahkam zamin yaratishi kerak. Saylovchilar deputatlar tashabbus ko‘rsatib, muqobil fikrlarni, qatiy siyosiy irodani namoyon etishlarini kutmoqda. Chunki haqiqat bahs va tortishuvlarda tug‘iladi. Albatta, har bir deputat ma’lum bir sohaga oid qonunni qabul qilishda shu sohaning mutaxassisi sifatida fikr yuritishga qodir bo‘lishi lozim. Negaki, deputat qabul qiladigan qonun hujjatlari millionlab odamlarning, butun xalqimizning hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Lekin bu ta’sir ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun xalq ishonchini qozongan deputatning xato qilishga, o‘z zimmasidagi yuksak mas’uliyatni unutishga sira haqqi yo‘q deb o‘ylayman.

Qonun ijodkorligi borasidagi faoliyat sifatini tubdan yaxshilash, qonunchilik bazasini tizimlashtirish va qonunosti hujjatlari sonini keskin qisqartirish, qonun ijodkorligida “ahdli tartibga solish” modelini yanada keng qo‘llash borasidagi ishlar tizimli ravishda davom ettiriladi. Huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash faoliyatini o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi.

Har bir qonunning, ta’bir joiz bo‘lsa, ko‘zi, oyog‘i, ijrosi bo‘lishi lozim. Qonun qabul qilindimi, albatta, hayotda o‘zgarish bo‘lishi kerak. Ayni vaqtda

masalaning ikkinchi tomonini ham o‘ylash kerak, ya’ni parlamentga sifatsiz qonun loyihalarini kiritgani uchun avvalo, tashabbuskor idoralar va Adliya vazirligining mas’uliyatini oshirish zarur. Agar tashabbuskor idora qonun loyihasining ahamiyatini deputatlar oldida asoslab bera olmasa, Qonunchilik palatasi loyihani ko‘rib chiqishni rad etishi kerak. Ayni paytda shuni ham ta’kidlash lozimki, xalq vakillari qonunlarni qabul qilishda ularning kelgusida ishlashini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni ham oldindan ko‘rishi lozim. Qonunlarda belgilangan ayrim qonunosti hujjatlarining o‘z vaqtida qabul qilinmasligi - ularning amalda “ishlamay qolishi”ga olib kelmoqda bu esa, fuqarolar va tadbirkorlarning haqli e’tiroziga sabab bo‘lmoqda.

Bundan tashqari, biron-bir qonun loyihasini qabul qilishda tashabbuskor bo‘lgan parlament fraksiyasining shu qonunni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqilishi ushbu masalani samarali yechishga yordam beradi. Qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, xalqaro reytinglardagi o‘rnimizni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalarga mosligini o‘rganish amaliyotini ham yanada kengaytirish lozim. Chunki, xalqaro shartnomalar va reytinglar mazmunida xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi o‘z aksini topgan. Bu jarayonga fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolar yanada kengroq jalb etiladi. Tahlillar asosida ijroga halaqit berayotgan ortiqcha vazifa va funksiyalarni qisqatirish davom ettiriladi.

Davlat idoralaridagi ijro sifati va holatini viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari kengashlarida, respublika darajasida esa - Vazirlar Mahkamasida har oyda tanqidiy muhokama qilib borish amaliyoti yanada takomillashtiriladi, izchil va samarali tashkil qilinadi. Jamiyatimizda “Qonun va adolat - ustuvor”, “Jinoyatga jazo muqarrar” degan muhim prinsiplarni ta’minlash, sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, advokatura tizimi faoliyatini takomillashtirish, ularni tom ma’noda inson huquq va manfaatlari himoyachisiga aylantirish bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Ana shunday o‘zgarishlar tufayli biz yillar davomida deyarli unutib qo‘ygan tartib-intizom, qonun-qoida, odamlarning haqli talablari bilan hisoblashish kabi eng muhim tamoyillar hayotimizda tobora chuqur o‘rin egallamoqda. Sud ostonasiga qadam qo‘ygan har bir inson O‘zbekistonda adolat hukm surayotganiga to‘la ishonch hosil qilishi kerak. Sudyalar qonunlarning tolmas himoyachilari, adolatning mustahkam ustunlari bo‘lishi lozim. Insonni faqat jazolash bilan, faqat repressiv usullar bilan tarbiyalab bo‘lmaydi. Buni hayotning o‘zi ko‘p bor isbotlagan. Insonni tarbiyalash uchun butun jamiyat harakat qilishi, avvalambor, jinoiy holatlarni tug‘diradigan sabab va omillarni hayotimizdan bartaraf etishimiz kerak. Yaqin o‘n yillikda sud tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlash, adolatli sudlovdan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

-avvalo, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligi borasidagi konstitutsiyaviy tamoyilni hayotga izchil tatbiq etish, sudlar faoliyatida xalqaro huquq va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridagi tamoyillar va normalarning kengroq qo‘llanishiga erishish;

-xususiy mulk dahlsizligini, tadbirkorlik va tadbirkorlarni ishonchli himoyalashni ta'minlashda sudlarning rolini kuchaytirish, jismoniy va yuridik shaxslarning ko‘chmas mulklarini buzish, davlat va jamiyat extiyojlari uchun yer uchastkalari va xususiy mulk ob'ektlarini olib qo‘yish hamda tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan litsenziyalarni bekor qilish bo‘yicha qarorlarning faqat sud tomonidan qabul qilinishiga erishish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining davlat organlari harakati yoki harakatsizligi oqibatida ko‘rgan zararlari borasidagi da'vo muddatlarini bekor qilish va muddatsiz ekanligini kafolatlash maqsadida **“Sudlar to‘g‘risida”** kodeks qabul qilish;

“Xabeas korpus” institutining qo‘llanish sohasini yanada kengaytirish, sud mustaqilligini ta'minlash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakolatlarini optimallashtirish;

prokurorlarning maqomi, ularning mustaqilligini ta'minlash masalalari, tanlash va xizmat pog‘onalaridan o‘stirishning xolis mezonlari qonunda aniq belgilangan bo‘lishiga erishish, hokimiyatlar bo‘linishining konstitutsiyaviy tamoyilidan kelib chiqib, bu boradagi uslub va mezonlarni takomillashtirish;

viloyatlar miqyosidagi sudlarni optimallashtirish, birlashtirish, yagona sud raisi bo‘ysunuviga o‘tkazish. Xususan Ma'muriy sudlar tomonidan ommaviy, moddiy huquqqa oid ishlar ham amalda ko‘rib chiqilayotganini inobatga olib ularning maqomini yanada oshirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish;

sud buyrug‘i institutini takomillashtirish, uning ayrim turlari o‘rniga sudgacha hal etish mexanizmlarini joriy etish hamda boqimanda qarzdorlikni sud orqali undirish masalasi va mexanizmlarini takomillashtirish.

sud tergovi institutini takomillashtirish, sudyalar vakolatlari va maqomini yangi talablar darajasiga olib chiqish, ularning qaror va xulosalariga nisbatan nomzodlarning shikoyat qilish huquqini yanada oshirish.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasida ushbu sohadagi eng ustuvor vazifamiz - O‘zbekistonning dunyodagi “qonun ustuvorligi indeksi” yuqori darajada bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishini ta'minlash va aholining adolatli sudlovga ishonchini oshirishga yordam beradi.

Bundan keyin ham ana shu maqsadda biz insonning fundamental huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoyalash, xususiy mulk dahlsizligini kafolatlash, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlov holatini tubdan yaxshilash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratamiz. Biz odamlarda sudga

bo‘lgan ishonch va hurmatni qaytaramiz. Biz uchun sud faoliyati va mustaqilliginining eng muhim mezoni - fuqarolar va tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyalanganligi, adolatli sudlov ta’minlanganligi, yakuniy va barqaror sud qarorlarining qabul qilinganligidir. Sudyalar kengashlari faoliyatining universal prinsiplarini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Sudlar faoliyati ochiqligi va oshkoraligining kuchaytirilishi, “Elektron va raqamli sud” konsepsiyasining amalga oshirilishi, sudlar tomonidan o‘z faoliyati haqidagi hisobotni Xalq deputatlari kengashlariga taqdim etilishi, mahalla, korxona va tashkilotlarda sayyor sud yig‘ilishlari o‘tkazilishi - adolatli sudning garovi bo‘lishiga erishishimiz lozim. Yangi O‘zbekiston strategiyasi mustaqil advokatura faoliyatini samarali tashkil etishni nazarda tutadi.

Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu borada “Mustaqil advokatura konsepsiyasi” ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Tergov va sudning barcha bosqichlarida advokatning roli yanada oshiriladi, Advokatlar akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Advokatura va yuridik xizmatlar ko‘rsatish institutlarini rivojlantirish maqsadida quyidagilarga e’tiborni kuchaytirish lozim. Advokatlar palatasining mustaqilligini amalda ta’minlash, uning huzurida Advokatlar akademiyasini tashkil etish, advokatning maqomini olish uchun qo‘yilgan stajirovka muddati haqidagi talabni bekor qilish, adliya tizimining advokatura sohasiga aralashuvini bartaraf etish;

advokatura instituti mustaqilligi, advokatlarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarining samarali himoyasini ta’minlash, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ularning haq-huquqlari buzilganligi to‘g‘risidagi shikoyatlarini ko‘rib chiqilishi va tegishli baho berilishi bilan bog‘liq masalalarda parlamentning roli va ahamiyatini oshirish. Shu maqsadda Oliy Majlis quyi palatasida advokatura institutini mustahkamlash komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish;

nodavlat notarial instituti faoliyatini qayta tiklash va faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish, notarial harakatlarning masofadan turib, interaktiv - elektron xizmat ko‘rinishidagi faoliyat sohasini kengaytirish, notariuslarning nodavlat birlashma shaklidagi hamjamiyati faoliyatini tizimli tashkil etish;

yuridik xizmat ko‘rsatish sohasini yanada takomillashtirish, “Shartnomaviy huquqiy baza va yuridik xizmat to‘g‘risida”gi, “Bepul yuridik yordam to‘g‘risida’gi qonunlarni hamda yaxlit huquqiy himoya konsepsiyasini amalga oshirish, aholi ongida advokatura va notarial institutlariga xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlar sifatida qarashni shakllantirish, ushbu sohada xususiy sektorning rolini oshirish.

Xalqimiz azal-azaldan bolajon xalq va o‘z taqdirini farzandlarining farovon hayoti bilan bog‘laydi. Islohotlarimiz natijadorligi va samarasini ta’minlashda esa, ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyosdir. Shunday ekan, Bolalar ombudsmani institutini yanada kuchaytirish, Bola huquqlari kodeksini qabul qilish, Media-ombudsman institutini tuzish alohida ahamiyat kasb etadi. Yaqin yillarda huquqni muxofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo‘lida og‘ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantiramiz.

Bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirish va Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va OAVni qo‘llab-quvvatlash jarayoni jadal bormoqda. Bu jihatdan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash - samarali boshqaruvni amalga oshirishdagi ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Mamlakatning har tomonlama gullab-yashnashiga faqat kuchli va adolatli fuqarolik jamiyati sharoitida erishish mumkin. Bunda barcha qarorlarni qabul qilishda fuqarolar va ularni birlashmalarining fikrlari inobatga olinishi zarurligi nazarda tutiladi.

Ayni paytda ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazorati institutlarining izchil kuchaytirilishi, boshqaruv funksiyalarining aksariyatini xalqning o‘ziga, jamoat birlashmalariga, o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga berish maqsadga muvofiq. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

-davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo‘lga qo‘yish;

-o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash va milliy modelini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

-davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish choralarini joriy qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

-ilmiy va ekspertlar guruhlari ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish yuzasidan tashabbus ko‘rsatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli ravishda o‘rganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

-fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-hududiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish;

-fuqarolik jamiyatining rivojlanishini, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasini, shuningdek, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini baholovchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, bu ko‘rsatkichlar asosida davriy va maxsus, jumladan, muqobil ma’ruzalar tayyorlanishini tashkil etish;

-fuqarolik jamiyati institutlariga ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganishda va ushbu tajribani O‘zbekistan sharoitida joriy etishda ko‘maklashish.

Ushbu sohadagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o‘rta muddatli istiqbollari va bosqichlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalarini o‘zimizga aniq belgilab olishimiz lozim.

Bundan maqsad - mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishdan iboratdir.

Davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hamda dolzarb masalalarni hal etishda ularning hamkorligini kuchaytirish, barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarning tashabbuskorligi va faolligini ta’minlash ham shu maqsadga xizmat qiladi. Barchamizga ma’lumki, islohotlarimiz natijalari, bo‘layotgan o‘zgarishlar va aholining kayfiyati avvalo mahallada seziladi. Shu ma’noda, **“Mahalla - jamiyatimizning yorug‘ yuzi va vijdoni ko‘zgusi”,** desak to‘g‘ri bo‘ladi. Shuning uchun barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o‘z sohasi bo‘yicha mahallalardagi muammolarni o‘rganishi va ularga yechim topishi, natijani ta’minlashi shart.

Mahalladagi ishlarning ahvoli vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashda bosh mezon bo‘ladi. Shuningdek, mahallaning nufuzini, uning resurs va imkoniyatlarini ko‘paytirish, xodimlarining moddiy ta’minotini yaxshilash bo‘yicha dasturni samarali amalga oshirish zarur. Mahalla raisi va uning o‘rinbosarlari vakolatlarini kengaytirib, ularga aholi muammolarini bevosita hal qilish borasida yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratishimiz kerak. Bunda mahalla raisiga mahalliy kengash majlisida ko‘rilishi majburiy bo‘lgan masalalarni kiritish huquqini berish lozim. Bu orqali muammolarni tezkor hal qilishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Mahallada ishlayotgan malakali va tashabbuskor kadrlarni davlat idoralari rahbarlik lavozimlariga tavsiya etish tizimi yo‘lga qo‘yilayotgani ham bejiz emas. Sohaga oid milliy qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyotining chuqur tahlili va ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish asosida quyidagi vazifalarni bajarish lozim.

-xalqaro amaliyotda keng tarqalgan jamoatchilik nazoratining samarali va ta’sirchan shakllarini joriy etish, ularni amalga oshirish mexanizmlarini qonunda batafsil belgilab qo‘yish maqsadida **“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi** qonunni qayta ko‘rib chiqish;

-mamlakatimizda fuqarolik jamiyati rivojlanishini, jamiyat institutlarining davlat organlari va tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik darajasini, shuningdek, ularning jamiyatni sotsial-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jihatdan rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini baholash indikatorlarini ishlab chiqish hamda kelgusi besh yillikda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish;

-jamiyatda adolatni ta’minlash tamoyilini amalga oshiradigan ta’minlovchi fuqarolik institutlarining keng tarmog‘ini shakllantirish maqsadida davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi bo‘yicha o‘ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-ushbu yo‘nalishda ham yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish choralarini ko‘rish lozim. Bizning ustuvor vazifamiz - fuqarolik jamiyati institutlarining aholining hayotiy muhim muammolarini hal qilish, mulkdorlar sinfi manfaatlarini himoyalash sohasidagi faoliyatini samarali tashkil etish;

-o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini har tomonlama yaxshilash - to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiyani amalga oshirishning asosiy yo‘li ekanini e’tiborga olgan holda, jamoat boshqaruvida mahalla faoliyatining ahamiyati va samaradorligini oshirish, uni xalqqa amaliy yordam ko‘rsatuvchi mustaqil, kuchli va ta’sirchan fuqarolik institutiga aylantirish zarur.

Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida Nodavlat notijorat tashkilotlar kodeksini qabul qilish, Jamoatchilik palatasini tuzish ishlari jadallashtirish lozim.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlar jarayonida ommaviy axborot vositalari sohasida ham tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. El-yurtimiz, jamoatchiligimiz matbuot nashrlari, teleradiokanallar, nashriyot va matbaa korxonalari, Internet saytlari, axborot xizmatlarida o‘z vazifasini sidqidildan ado etayotgan zahmatkash jurnalist va blogerlar, noshir va muharrirlar, tarjimon va rassomlar, rejissyor va operatorlar, barcha texnik xodimlarning mashaqqatli mehnatini yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi. Doimo yangilik izlab, yangilikka intilib yashaydigan, jamiyatda yuz berayotgan muhim o‘zgarishlar, ustuvor g‘oya

va tashabbuslarning ma’no-mohiyatini odamlarga tezkorlik va xolislik bilan yetkazadigan, hayotning qaynoq nuqtalariga dadil kirib boradigan matbuot xodimlari mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda.

2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotini asosiy yunalishlarini takomillashtirish omili sifatida.

2023 yil 11 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Strategiyada 5 ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta muhim maqsad o‘z aksini topgan. Eng muhimi, strategiya orttirilgan tajriba, xalqaro ekspertiza va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi. Ta’kidlash joizki, strategiya o‘z ichiga barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash kabi asosiy g‘oyalarni o‘z ichiga olgan.

Mazkur yo‘nalishlar doirasida kelgusi yetti yilda iqtisodiyot hajmini ikki barobarga oshirish, xususan, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollar, aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiy rivojlanishni zarur darajadagi energetika, suv va infratuzilma resurslari bilan ta’minlash, mamlakatda qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish maqsad qilingan.

Shuningdek, strategiyaga ko‘ra, aholiga tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish borasidagi islohotlar natijasida 350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlar davolash bilan to‘liq qamrab olinadi. Go‘daklarda irsiy kasalliklar bo‘yicha selektiv skrining tekshiruvlar qamrovi kamida 50 foizga oshiriladi. Natijada bolalar o‘rtasida irsiy kasalliklar ikki barobarga qisqaradi.

Kelgusi yillarda go‘daklarni mikronutrient kukuni, yosh bolalarni gelmintoz profilaktikasi bo‘yicha maxsus preparatlar, yod preparati, xotin-qizlarni polivitamin, temir va foliy kislotasi bilan bepul ta’minlash ishlari rivojlantiriladi. Natijada yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning tarqalishi 20 foizga qisqarishiga erishiladi.

Bu davrda tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo‘g‘inning o‘zida hal qilishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Yana e’tiborga molik bir jihat shuki, mamlakatimizni rivojlantirishga qaratilgan strategik hujjatlar va olib borilayotgan islohotlar samarasi o‘laroq, keyingi 5 yil ichida bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovi 27 foizdan 74 foizga yetdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5211 tadan 30420 taga oshdi. Mazkur sa’y-

harakatlar “O‘zbekiston–2030” strategiyasining tegishli maqsad va ko‘rsatkichlarida ham aks etgan. Unga muvofiq, maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda qamrov darajasini 100 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

E’tirof etish kerakki, o‘tgan yillarda xalq bilan muloqot qilish, inson dardi, muammolarini ijobiy va tezkor hal qilish bo‘yicha yangi tizim yaratildi. Xususan, davlat organlarining aholi bilan bevosita muloqoti yo‘lga qo‘yildi. Bu aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini o‘zgartirmoqda, faollik, islohotlarga bo‘lgan ishonchini kuchaytirmoqda. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo‘yish imkoniyati ortib bormoqda. Ana shu sa’y-harakatlarning davomi sifatida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tashkil etildi. Komissiya strategiya doirasidagi islohotlar bo‘yicha tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatli amalga oshirilishi, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib boradi. Shuningdek, strategiyadagi maqsad va ko‘rsatkichlarning izchil, sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rganish maqsadida maxsus onlayn portalni ishga tushirish ham rejalashtirilgan.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan yuritiladigan ushbu portal orqali aholi strategiyaning ijrosi, shuningdek, har bir maqsad va ko‘rsatkichlar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini qoldirish hamda takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z navbatida, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi aholi tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslarni o‘z vaqtida umumlashtirib, tahlil qilib boradi. Chora-tadbirlarning ijrosi bo‘yicha tizimli monitoring yuritib, natijalarini har oyda Respublika komissiyasiga kiritadi.

Yangi O‘zbekistonni dunyoning taraqqiy topgan, ijtimoiy-iqtisodiy barqaror o‘sayotgan va inson kapitali yuqori bo‘lgan demokratik davlatlari qatoriga kirishini ta’minlash - barqaror rivojlanish strategiyamizning mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Bunda aholining to‘liq bandligini ta’minlash va barcha uchun munosib ish o‘rinlarini yaratish doimiy ravishda diqqat markazimizda bo‘ladi. Bandlik darajasini yangi bosqichga ko‘tarish, real ish haqining barqaror o‘sishiga ko‘maklashuvchi oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqa xo‘jaligi va xususiy biznesni qo‘llab-quvvatlash hisobiga aholi bandligini ta’minlash hamda fuqarolar oilaviy budjeti daromadlarini oshirish borasidagi ishlar ham biz uchun o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqa xo‘jaligi va xususiy biznes bilan mashg‘ul fuqarolarning zamonaviy mashinalar, uskunalar, homashyo va materiallar xarid qilishi uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiramiz.

Yaqin o‘n yilda aholi daromadlarining 2,5 - 3 marta ko‘payishiga erishish, eng kam ish haqini yashash minimumi miqdori darajasiga tenglashtirish bo‘yicha davlat dasturi ishlab chiqiladi. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, 2030-yilgacha kambag‘allik darajasini 2 martaga kamaytirish choralari ko‘riladi. Samarali migratsiya siyosatini amalga oshirish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarimizga har jihatdan madad berish, qonuniy manfaatlarini himoyalash bo‘yicha uzluksiz ishlarni davom ettiramiz.

Kam ta’minlangan oilalarning 3 yoshgacha bo‘lgan farzandlariga to‘liq ovqatlanish uchun oylik naqd to‘lov yoki oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmonlar bepul berilishi bo‘yicha dastur qabul qilinadi.

Har qanday jamiyatning madaniyatlilik, bag‘rikenglik va mehribonlik xususiyatlari imkoniyati cheklangan, nogironligi bo‘lgan, boquvchisini yo‘qotgan shaxslar va keksalarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi.

Nogironlikni belgilash mezonlari jahon andozalariga mos ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o‘tkaziladi. Aholining muhtoj qismini protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha yangi tizim yaratiladi.

Mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish, ularni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yanada takomillashtiriladi. Bu boradagi sa’y-harakatlarimizning huquqiy asoslari sifatida **“Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi kodeksni** qabul qilishimiz kerak bo‘ladi.

Keksalar va nuroniylarimizni, duogo‘y otaxon va onaxonlarimizni e’zozlash, ularni hayotdan rozi qilish, qo‘limizdan kelganicha umrlarini uzaytirish eng ulug‘ qadriyatlarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Bunday tabarruk insonlarga xizmat qilish, ularga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimizni yanada kuchaytirishni o‘zimizning burchimiz, deb hisoblaymiz va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilaymiz.

Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirib borish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. Iste’mol tovarlari, jumladan, arzon narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxatini kengaytirish va hajmini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu maqsadda **“Ijtimoiy kodeks”** qabul qilish davr taqozosidir.

Bularning barchasi - ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, nogironlikni belgilashning samarali mezonlarini qo‘llashga qaratilgan ishlarni faollashtirish bu jabhadagi maqsad-muddaolarga erishishga yordam berishi shubhasiz.

Sihat-salomatlik har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan buyuk ne’matdir. Faqat sog‘lom inson va sog‘lom xalq mislsiz ishlarga hozirligini hammamiz yaxshi anglaymiz.

Ma’lumki, kasallikni davolashdan ko‘ra, uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir. Shu bois mamlakatimizda profilaktik tibbiyot rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buyuk ajdodimiz Imom Moturidiy hazratlarining “Tiriklik hikmatini sog‘liqda, deb bilgin”, degan chuqur ma’noli so‘zlari naqadar to‘g‘ri ekanini hayotning o‘zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda.

Shu bois mavjud imkoniyat va salohiyatimiz, pandemiya davrida orttirgan tajribamiz hamda xorijdagi ilg‘or yutuqlardan foydalanib, aholi salomatligini asrash va mustahkamlash borasidagi tub islohotlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur. Bunda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish - eng ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

Barcha uchun sifatli va professional tibbiyotni yaratish - biz taqdim etayotgan strategiyaning muhim yo‘nalishidir.

Kelgusi yillarda ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan tibbiyot sohasida quyidagi vazifalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta’minlash orqali aholi o‘rtasida kamqonlik 25 foizga kamaytiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida perinatal va skrining markazlari hamda birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalaridagi onalar va bolalar salomatligiga mas’ul tuzilmalar (“Ayollar maslahatxonasi”, perinatal skrining xonasi, “tibbiyot brigadalari” tarkibidagi oilaviy shifokor, pediatr va boshqalar)ning homilador ayolni kompleks kuzatuvi bo‘yicha o‘zaro hamkorlik va muvofiqlashtirilishini ta’minlovchi yagona tizim joriy etiladi.

Bundan tashqari, homilador ayolning eng erta muddatlarda hisobga olinishi, uning har kungi holatidagi o‘zgarishlarni kompleks nazorat qilib borish uchun yagona elektron baza yaratildi.

Tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inini kuchaytirish, ayniqsa, qishloq va mahallalarda tibbiy **xizmatni** sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarish zarur.

Bu borada birlamchi bo‘g‘inda umumiy amaliyot shifokori o‘rniga oilaviy shifokor va unga yordamchi sifatida 5 nafar o‘rta tibbiyot xodimidan iborat tibbiy brigadalar tashkil etildi.

Har bir mahallada, eng avvalo, 5 yoshgacha bolalar, shuningdek, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar, nogironligi bo‘lganlar, qon-tomir, onkologik, endokrin kabi kasalliklarga moyilligi bo‘lgan fuqarolar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, davlat tomonidan bepul tibbiy xizmatlar va dori vositalari ro‘yxati qayta shakllantirilib, ular bilan aholini kafolatli ta’minlash tizimi bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, tibbiy xizmatlar ko‘rsatishda birlamchi bo‘g‘in qamrovini kengaytirish maqsadida kelgusi **3** yilda **315** ta **“oilaviy shifokor”** punkti va **85** ta oilaviy poliklinika ishga tushiriladi. Bundan tashqari, **“qishloq shifokori”** dasturi doirasida olis hududlarda ish boshlaydigan mingdan ortiq vrachga 30 million so‘mdan yordam puli berilib, ular xizmat uylari bilan ta’minlanmoqda. Olis va chekka hududlarda birlamchi va ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish uchun hamda ehtiyojmand aholi uchun skrining tadbirlariga xususiy shifoxonalar ham jalb etilib, ularga subsidiya ajratildi.

O‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlari - hamshira va feldsherlarning obro‘si va mavqeini oshirishga alohida urg‘u beramiz.

Oqqon va og‘ir irsiy gematologik kasalliklarni davolash bo‘yicha ishlar yuqori bosqichga ko‘tariladi.

Onko-gematologiya sohasi hamda davolash qiyin bo‘lgan kasalliklar bo‘yicha murakkab diagnostika va tibbiy amaliyotlar uchun davlat budjetidan yetarli mablag‘lar ajratilib boriladi. O‘tkir buyrak yetishmovchiligi bo‘lgan barcha bemorlar bepul gemodializ xizmati bilan qamrab olindi. Shuningdek, endokrin kasalliklarni aniqlash va davolash maqsadida hududiy shifoxonalarda maxsus bo‘limlar tashkil etiladi. Yana bir masala - aholimizning katta qismini qaynaydigan o‘tkir qon-tomir kasalliklari bo‘yicha 35 ta tumanlararo markaz tashkil etilmoqda. Ushbu markazlar aholiga infarkt va insult holatlarida tezkor va malakali tibbiy yordam ko‘rsatish orqali o‘lim va nogironlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa har yili kamida 30 ming nafar inson hayotini saqlab qolish nazarda tutilmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimida samaradorlik va aholiga qulayliklarni oshirish bo‘yicha hali ko‘p ish qilish kerak. Joylarda o‘tkazilgan so‘rovlarda bor-yo‘g‘i 13 foiz aholi tibbiyotdagi ijobiy o‘zgarishlarni sezayotganini aytgan xolos va ushbu sohadagi ishlar samarasining yuksalishiga imkon bermayotgan qator tizimli muammolar borligidan dalolat beradi.

Sog‘liqni saqlash sohasi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan holatlarga barham berish va mavjud muammolarni bartaraf etish borasida ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

-sog‘liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish;

-tibbiyot xodimlarining mas’uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to‘g‘ridan- to‘g‘ri ta’sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;

-jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta’minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish;

-hududlarda sog‘liqni saqlashni tashkil etishning “klaster” modelini shakllantirish, tibbiyot va farmasevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmasevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;

- tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilashda mahalliy xususiyatlarni hisobga olish;

- tibbiy xizmatlar uchun klinik-harajat guruhlari bo‘yicha “har bir davolangan holat” uchun to‘lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy qilish, shuningdek, majburiy tibbiy sug‘urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

-tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo‘yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish;

patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;

- tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, “Ona va bola” hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma’lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

-farmasevtika tarmog‘ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish.

Ushbu yo‘nalishda davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog‘liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yanada yaxshilash imkoniyatlarini ishga solishimiz lozim. Ayniqsa, tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish sohadagi yangilanishlarga keng yo‘l ochadi.

Shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta’lim muassasalarini xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o‘tkazish) hamda zamonaviy ta’lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan ishlar esa ushbu sohadagi islohotlar samarasini ta’minlashga yordam beradi.

Bu jihatdan, “elektron sog‘liqni saqlash” tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma’lumotlar bazasi majmuasini yaratish kabi ishlar bu sohadagi muhim vazifalarimizdir.

Dunyoda sog‘liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishgan, aholini o‘rtacha umr ko‘rish darajasi yuqori bo‘lgan eng ilg‘or mamlakatlar qatoridan joy olish strategik vazifamizdir. Mamlakat sog‘liqni saqlash tizimi, aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarni yanada maqbullashtirish va aholining uzoq umr ko‘rishini ta’minlashga yo‘naltirilgan “Aqlli tibbiyot” konsepsiyasi ishlab chiqiladi va joriy etiladi. Muhtoj oilalarga dori-darmon, kasalxonada davolanish, jarrohlik amaliyoti uchun tibbiy xizmatlarni bepul amalga oshirish bo‘yicha maxsus tizim yaratiladi.

Ushbu tizimda ona va bola sog‘ligini saqlashga alohida e’tibor qaratiladi. Bu borada jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish muhim o‘rin tutadi.

Mazkur yo‘nalishda aholining keng qatlamlarini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarziga jalb etamiz. Jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirokini ta’minlashga qaratilgan yirik dasturlarni amalga oshiramiz.

Bu borada tibbiyot sohasini tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini kuchaytirishga qaratilgan ‟Sog‘liqni saqlash kodeksi”ni qabul qilish davr taqazosidir.

Jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi. Sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga bundan buyon ham katta ahamiyat berishimiz lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, eng olis tumanlarda ham zamonaviy va foydalanish uchun qulay sport infratuzilmasi barpo etilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda sport bilan doimiy shug‘ullanadiganlar soni ikki barobar ko‘paydi. Yurtimiz sportchilari turli xalqaro musobaqalarda mingdan ziyod medallarni qo‘lga kiritdi, ulardan 400 dan ortig‘i oltin medallardir. Hozirgi vaqtda boks, dzyudo, erkin kurash, badiiy gimnastika, og‘ir atletika, shaxmat va boshqa sport turlari bo‘yicha O‘zbekistonda shakllangan maktablar butun dunyoda ma’lumu mashhurdir. Osiyo olimpiya kengashi tomonidan 2025-yilda Yoshlar o‘rtasida Osiyo o‘yinlarini Toshkent shahrida o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilingan. Bu mamlakatimizga bildirilgan katta ishonch va e’tibor, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Ayni vaqtda buning mas’uliyati ham katta ekanini biz yaxshi tushunamiz. Qit’amiz miqyosidagi ushbu musobaqaga hozirdan boshlab puxta tayyorgarlik boshlandi. Jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish - aholi salomatligini ta’minlashda muhim omildir.

Shu sababdan keyingi yillarda 70 dan ziyod jismoniy tarbiya va sport muassasasini bunyod etish, barcha bog‘cha va maktablarni sport jihozlari bilan ta’minlash, tuman markazlari va shaharlarda maxsus piyodalar va velosiped yo‘laklari barpo etish rejalashtirilmoqda. Bu sohaga qaratilgan keng qamrovli ishlar natijasida aholini ommaviy sport turlariga jalb qilish orqali yillik qamrov hozirgi 19 foizdan 25 foizga yetkaziladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini e’tirof etish bilan birga, sohada qator muammolar va kamchiliklarning mavjudligi mamlakatimizdagi mavjud sport salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilayotganini qayd etish zarur.

Bu o‘z navbatida jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish masalalariga katta ahamiyat berish zarurligini anglatadi.

Bu boradagi muammolarni hal etishda quyidagilarga alohida ahamiyat qaratish lozim:

- jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalb etish,

jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtirokini ta’minlashga qaratilgan konseptual dasturlarni amalga oshirish;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jismoniy tarbiya va sport jamiyatlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari bilan birgalikda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishni ommalashtirish borasida keng ko‘lamli ishlarni tashkillashtirish tizimini takomillashtirish;

- bolalarni sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etish, bolalar sport ta’limi sifatini oshirish, barcha hududlarda, ayniqsa, qashshoq va chekka hududlarda bolalar sporti ob’ektlari tarmog‘ini yanada kengaytirish orqali bolalar sportini yanada rivojlantirish;

- Olimpiya, Paralimpiya va Osiyo o‘yinlari, jahon, Osiyo chempionatlari va boshqa xalqaro musobaqa va turnirlarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlash uchun istiqbolli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirishning, ular orasidan mamlakat terma jamoalari sifatli sport zaxirasi va tarkibini shakllantirishning samarali tizimini yaratishda O‘zbekiston Milliy olimpiya

qo‘mitasi, sport federatsiyalari (assotsiatsiyalari) bilan hamkorlik qilish darajasini yangi bosqichga ko‘tarish;

-mamlakatimizda professional, ommaviy sportni, shu jumladan sport uyinlari va qishki sport turlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda, sport tayyorgarligi jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, barcha sport turlari bo‘yicha milliy chempionatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro va mintaqaviy musobaqalar tashkil etish, nosog‘lom sport raqobatiga va taqiqlangan preparatlar ishlatilishiga Qarshi tizimli choralar ko‘rishni rag‘batlantirish;

-jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport tashkilotlari, ob’ektlari va inshootlarining ommaviy sport, bolalar sporti va professional sport yo‘nalishlari bo‘yicha moddiy-texnika bazasini rivojlantirish hamda mustahkamlash, ulardan maksimal darajada va samarali foydalanilishini ta’minlash, sport asbob-uskunalari hamda inventarlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilishini tashkil etish va kengaytirish bo‘yicha takliflar tayyorlashda qatnashish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish hamda sport tashkilotlarini, ta’lim va sport-ta’lim muassasalarini yuqori malakali trenerlar va boshqa sport mutaxassislari bilan ta’minlash ishlarini yanada samarali tashkil qilish;

- jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro va davlatlararo aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish borasidagi ishlarni tashkil qilish, ommabop sport dasturlarini tashkil etishga ko‘maklashish, jismoniy va sport sohasiga oid ommaviy adabiyotlar chop etish oldimizda turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi. Bugungi kunda sport va sog‘lomlashtirish jarayonlarining natijadorligi Yangi O‘zbekistonni barpo etish vazifalari bilan uzviy bog‘liq ekanini anglagan holda mas’uliyat bilan harakat qilishimiz lozim.

Xalqimizda “ta’lim va tarbiya - beshikdan boshlanadi”, degan hikmatli so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli mamlakatimizda ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejiz emas.

Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.

Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart.

Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy- ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak. Buning uchun olim va mutaxassislarimiz, hurmatli ulamolarimiz bu ma’naviy xazinani bugungi avlodlarga sodda va tushunarli, jozibali shakllarda yetkazib berishlari zarur. “Oqqan daryo - oqaveradi”, deydi dono xalqimiz. Bugun buyuk ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib, yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlar mavjud, deyishga to‘la asoslarimiz bor. Hammasi ana shu imkoniyatlardan qay darajada oqilona foydalana olishimizga bog‘liq.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

Bu yo‘nalishni tizimli rivojlantirish bo‘yicha aniq davlat dasturlari qabul qilinadi. Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2 baravarga oshirilib, 100 foizga yetkaziladi. Bu vazifa nafaqat zamonaviy bog‘chalar qurib, balki oilaviy bog‘chalar tizimini rivojlantirish orqali ham hal etiladi. Biz “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ulug‘ g‘oya asosida mamlakatimizda maktab ta’limini umummilliy harakatga aylantirish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqamiz. Yurtimizda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish bo‘yicha davlat dasturlari ishlab chiqamiz va ijroga qaratamiz.

Xususiy maktablar tizimini yanada takomillashtirish, bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilda 60-70 foizga yetkazish - asosiy vazifamizdir. Maktablarda “vazir soati”, “tadbirkor va bankirlar sabog‘i” kabi dars amaliyotlarini joriy qilish lozim. Ularda ijro organlari rahbarlari, salohiyatli tadbirkorlar, malakali bank xodimlari dars o‘tishi kerak. Shuningdek, diniy ulamolarimiz ham jamoatchilikka ma’rifat, bag‘rikenglik, odob va ahloq ilmlarini o‘rgatishi maqsadga muvofiq. Biz maktab muammosiga birinchi darajali masala, deb qarashni davom ettirishimiz lozim. Maktab - faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur. Bunday

vazifalarni bajarish uchun ta’lim tizimidagi quyidagi masalalarni hal qilishimiz lozim.

Bugun aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog‘lanmagani, o‘quv dasturlarida uzviylik yo‘qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekani haqli e’tirozlarga sabab bo‘lmoqda. Amaldagi ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari asosan o‘quvchini ta’limning navbatdagi bosqichiga tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlash masalasi e’tibordan chetda qolmoqda. Bunday holatlarga barham berish uchun, xorijiy ekspertlar va tajribali o‘qituvchilarni keng jalb qilgan holda, umumiy ta’limning Milliy o‘quv dasturi loyihasini ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalarida sinovdan o‘tkazish lozim. Shuningdek, umumta’lim maktablarida darslik va o‘quv-metodik majmualarni tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimi mavjud emas. Maktab darsliklarini yaratish va chop etishni tartibga solish masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi paytda umumta’lim muassasalarining oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’minlanish darajasi 87 foizni tashkil etadi. Ko‘plab maktablar, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarida bir qator fanlar bo‘yicha malakali o‘qituvchilar yetishmayapti. Shu munosabat bilan pedagog kadrlar tayyorlash masalasi hamisha e’tiborimiz markazida turishi zarur.

O‘g‘il-qizlarimizni san’at dunyosiga oshno etish, yoshlarimiz jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari, zamon talabi bo‘lgan kompyuter va texnologiyalar sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Xalqimiz hamisha ustozlarni e’zozlab, ularning hurmat-izzatini joyiga qo‘yib kelgan. “Ustoz otadek ulug‘” degan hikmatli naql ham bejiz aytilmagan. Endi ana shu so‘zlarni qog‘ozda emas, amalda qaror toptiradigan, o‘qituvchi-muallimning qadr-qimmatini joyiga qo‘yadigan payt keldi.

Afsuski, ko‘p yillar davomida o‘qituvchiga e’tibor borasida so‘zimiz boshqa, ishimiz boshqa bo‘lib keldi. Oqibatda soha xodimlari go‘yoki keraksiz va himoyasiz qatlamga aylanib qoldi. Bunday nojo‘ya ishlar nafaqat ta’lim sifatiga, balki soha xodimlarining o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Qanchadan-qancha tajribali o‘qituvchilar dili og‘rib, sevgan kasbini noiloj tashlab ketganini ham bilamiz.

Yaqin yaqingacha o‘qituvchi-muallimlar, ayrim joylarda o‘quvchilar ham to‘rt oylab paxta yig‘im-terimi, chopiq va yaganaga chiqarilgani sir emas.

Bugungi kunda jamiyatimizda o‘qituvchi va murabbiylarning qaddi, sha’ni va g‘ururi tiklanayotgani barchamizni quvontiradi.

Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak. Shu ma’noda, jamiyatda o‘qituvchi va murabbiylarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni oshirish, muallim va ustozlarning qadri, sha’ni va g‘ururini tiklash, ularni ham ma’naviy, ham moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. Biz oliy ta’lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, oliy o‘quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o‘choqlariga aylantirishga alohida e’tibor qaratamiz. Aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinganlik darajasi muttasil oshirib boriladi. Mamlakatimizda yangi oliy ta’lim muassasalari, jumladan, xorijiy universitet va institutlarning filiallari tashkil etilib, ularning soni 200 tadan oshirildi. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma’lumot olish imkoniyati yanada kengaytiriladi. Bosqichma-bosqich masofaviy ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

Ayni paytda axborot texnologiyalari sohasida chuqur bilim va malakaga ega bo‘lgan, ulardan unumli foydalana oladigan zamonaviy mutaxassislar milliy iqtisodiyotimiz uchun nihoyatda zarur. Biz esa bu masalani chuqur anglagan holda, shu maqsadga erishish uchun jiddiy harakat qilishimiz shart.

Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimining vazifasi faqat talabalarga dars berishdan iborat emas. Universitet va institutlarimiz ilm-fan sohasida ham faol ishlashi, yoshlarni ilmiy ishlarga, katta-katta loyihalarga jalb etishi kerak.

Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz. Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan, jamiyat, davlat manfaatlarin himoya qiladigan, xalq hayotidagi o‘zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yoshlar avlodini shakllantirish vazifasi xam nihoyatda muhim, albatta.

Aslida, bizning avlodimiz ham o‘sha tizim ta’sirida shakllangan. Ota-onalarimiz avlodiga xos ma’naviy mezonlar, ijtimoiy talablarga hozirjavoblik, jamoaviylik tamoyillariga rioya qilish kabi xususiyatlar bizning avlodimizga ham o‘tgan. Bugungi kunda yoshlarni asosan, chet el andozalari, g‘oyasizlik tamoyillari va ijtimoiy fanlar tizimi qariyb yo‘qotilgan ta’lim ta’sirida shakllantirish tarafdorlarining ko‘pchiligi yaqin kelajakda ushbu avlodning asl qiyofasi, davlat va jamiyatga munosabati qanday bo‘lishi haqida yaxlit tasavvurga ega emaslar, deb o‘ylayman. Biz hali-hamon g‘oyasizlikka asoslangan ta’lim va gumanitar fanlar tizimi ta’siridan “xalos” bo‘lgan kelajak avlodi bilan yashaganimiz va ishlaganimiz yo‘q, ya’ni u bilan bevosita yuzma-yuz kelganimiz, muloqotga kirishganimiz yo‘q.

Bugungi global dunyoning eng asosiy muammolari bo‘lgan urush balosi va ekologik bo‘hronlar xavfi odamzotning minglab yillik faoliyati natijasi, ya’ni asrlar davomidagi xatoliklarning tabiiy-tarixiy hosilasi ekani ma’lum. Biroq, XX asrning ikkinchi yarmida, bor-yo‘g‘i yigirma-o‘ttiz yil davomida shakllangan hamda bugungi insoniyatning eng asosiy va shafqatsiz muammosi hisoblanadigan ma’naviy tanazzul aynan shunday tarixiy va tabiiy jarayonlar oqibati bo‘lganini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Eng rivojlangan mamlakatlar ham barham bera olmayotgan ma’naviy tanazzul balosi aynan o‘sha, bundan 60-70 yil ilgari ko‘plab taniqli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan, hayotga zudlik bilan tatbiq etilgan va insoniyatni ma’naviy g‘ariblashishiga olib kelgan ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik texnologiyalarining natijasi ekani bugun ko‘pchilikka ayon. Ammo o‘tgan asrning 70-yillariga kelib ushbu tamoyillar ustuvor qiyofa kasb etib, ular asosidagi texnologiyalar jamiyat hayoti va odamlar tafakkurini buzib bo‘lgan, ya’ni “poezd ketib bo‘lgan”, jamiyat, ayniqsa, yoshlar o‘zgargan, ularning ongi va tafakkuriga buzg‘unchi g‘oyalar ta’siri o‘rnashib qolgan edi.

Ijtimoiy fanlar sohasida odob-ahloq qoidalari va ma’naviyatning oddiy tushunchalari va sodda talablarini boshlang‘ich sinflardan o‘rgata boshlash zarurligi ayni haqiqat.

Ammo jamiyat va davlat hayotining murakkab kategoriyalari, odamlar orasidagi nihoyatda nozik ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy munosabatlar, ayniqsa, ishlab chiqarish yoki muayyan ixtisosliklar bilan bog‘liq ma’naviy tamoyillar haqidagi bilimlarni shu yoshdagi bolalar o‘zlashtira olmasligi ham ayon-ku. Shu bilan birga, ijtimoy fanlarni ta’lim bosqichlari va ixtisosliklarning talablari va tamoyillariga mosligi, o‘quvchilar, bakalavrlar va magistrlarning ehtiyojlari va qiziqishlari, kasb xususiyatlariga muvofiqligi haqidagi aniq-ravshan tasavvurlar tugal va maqsadga muvofiq darajaga yetmagani ham ma’lum.

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni qay tarzda taqsimlash, o‘qitish va amaliyot soatlarini qanday tashkil etishga doir maxsus konsepsiyani ishlab chiqish zarur ehtiyojga aylangan.

Hozirgi paytda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko‘rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda. Ya’ni, o‘z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o‘zlashtirish va ilg‘or

texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzilmalar faoliyat yuritmoqda.

Olimlarimiz tomonidan fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Tabiiy fanlarning asosiy sohalari - astronomiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, farmasevtika, geologiya, seysmologiya va boshqa jabhalarda jahon miqyosida qiziqish uyg‘otayotgan natijalarga erishildi. Iqtisodiyotning mineral homashyo resurslarini chiqindisiz va samarali qayta ishlash, quyosh energetikasi va boshqa qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo va biotexnologiya, genetika, ekologiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, farmakologiya, tibbiy diagnostika kabi hayotiy muhim tarmoqlarida mahalliy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-gumanitar fanlar - tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O‘zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarda ham muhim natijalarga erishilmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor islohotlariga o‘tishi ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga bo‘lgan yangicha yondashuvlarga yo‘l ochib berdi. Ular mamlakatimizning ilmiy salohiyatini saqlab qolish va ilmiy muassasalar faoliyatini mamlakatimizning dolzarb ilmiy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo‘naltirish imkonini berdi. Fundamental tadqiqotlar natijasida to‘plangan yangi bilimlar olimlarning amaliy va innovatsion ishlanmalarida o‘z ifodasini topmoqda.

Shu bilan birga, fundamental tadqiqotlarni yanada rivojlantirish masalasi biroz e’tiborimizdan chetda qolgani bugun yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Chunki fundamental tadqiqotlar jadal rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha boshqa davlatlardan sezilarli ravishda ilgarilab borayotganini ko‘rib turibmiz. Dunyoda ilm-fan sohasidagi yutuqlar aynan fundamental tadqiqotlar yo‘nalishida qo‘lga kiritilgani tasodifiy emas**.** Shuning uchun endilikda fundamental fanlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sohani iqtidorli yosh kadrlar bilan ta’minlash davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. Shuningdek, Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, tarmoq institutlari, ilmiy va innovatsion

markazlar hamda korxonalarning o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, ilm- fan va ta’lim sohalaridagi ilmiy, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradigan shart-sharoitlarni yaratishga asosiy e’tibor qaratilmoqda.

Endigi vazifa - nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratishdan iborat.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va uning yangi texnologik rivojlanishga o‘tish jarayoni dunyo bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o‘sib borayotgan muammolarini hal qilish usullarida raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o‘rin olish, to‘rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobat bardoshlikka erishish, to‘plangan muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo‘lishi lozim. Bunday raqobat sharoitida iqtisodiyotda ustuvor yo‘nalishlar rivojini ta’minlovchi ilmiy tadqiqotlar hamda innovatsion ishlanmalarni amalga oshiruvchi tizim ishini samarali tashkil qilish eng asosiy vazifa hisoblanadi.

Bu sohada ayniqsa ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish borasida milliy ilmiy portalni yaratish, portal doirasida mamlakatning ilmiy salohiyatiga oid barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan yagona akademik makon, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish uchun arizalarni avtomatik tarzda topshirish va ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi takomillashtiriladi.

Shu bilan birga, mahalliy va jahon miqyosidagi ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari tomonidan talab qilinadigan ilmiy tadqiqotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognozlashning tizimli jarayoni tashkil etiladi.

Bundan tashqari, mamlakatning ilmiy-texnik holati va uni yanada rivojlantirish tendensiyalari hamda so‘nggi yillarda mamlakatimiz ilm-fanining sifati va miqdoriy rivojlanishini o‘rganish, mahalliy ilmiy- texnik salohiyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va tahlil qilish borasida zarur choralar ko‘riladi.

Ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini hamda ilmiy infratuzilmani rivojlantirish samaradorligini tahlil qilish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi mexanizmlarini o‘rganish, ilmiy-tadqiqot dasturlarining samaradorligiga erishish va uning natijadorligini baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ushbu yo‘nalishdagi yangilanishlar bu sohada ham zamon talablarini e’tiborga olish, islohotlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatimiz ilm-

fanining yangi qiyofasini yaratish va ushbu sohadagi o‘zgarishlar dinamikasining samarali bo‘lishiga erishish masalalariga yangicha qarashlar va yondashuvlarni talab qilmoqda.

Yer yuzida ongli hayot paydo bo‘libdiki, odamzot muqaddas Ona siymosini, ayol zotini ulug‘lab, sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprog‘i jannat bog‘laridek go‘zal va mo‘tabardir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor. Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta’minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi ishlarning holati xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish jarayonlari islohotlar shiddatidan ortda qolayotgani ham sezilmoqda. Ana shularni hisobga olgan holda, keyingi yillardagi O‘zbekiston Respublikasining gender siyosati quyidagilarga qaratiladi:

-ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyat va huquqlarni yaratish;

-ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishda gender tengligini ta’minlash;

-barcha uchun adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash;

-barcha xotin-qizlar uchun gender tengligini ta’minlash, zuravonlikdan himoyalash, odam savdosiga chek qo‘yish;

-barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog‘lom turmush tarzini ta’minlash;

-milliy gender statistikasini rivojlantirish;

-rejalashtirish va budjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;

-OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta’minlash;

-barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta’minlash masalalariga xotin-qizlarni yanada kengroq jalb qilish.

Yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlarni samarali amalga oshirish maqsadida quyidagi dolzarb vazifalarni bajarish zarur deb hisoblaymiz:

-xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

-yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash;

-ehtiyojmand hotin-qizlarning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatishning samarali usul va vositalaridan keng foydalanish;

-barcha hududlarda xotin-qizlarning bandligini to‘la-to‘kis ta’minlash imkonini oshiradigan maxsus tizim yaratish va uning samarali ishlashini yo‘lga qo‘yish;

-xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama qo‘llab-quvvatlash;

-xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish;

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-xotin-qizlar bilan bog‘liq muammolarni yechishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta’minlash borasida ishlarni tizimli tarzda olib borish.

Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqeini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim.

Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tashkil etilgan respublika va hududiy jamg‘armalar faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayollarning biznes sohasidagi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda joylarda aniqlangan xotin-qizlar muammolarini hal etish uchun budjetdan har yili qo‘shimcha ravishda 1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirish lozim. Buning uchun “Xalq banki” tomonidan joylarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish, biznesga oid namunaviy rejalarini ishlab chiqish va kredit olishda ularga amaliy yordam ko‘rsatishning yangi tizimi joriy etiladi.

Oliy Majlis palatalari va Hukumatga xotin- qizlarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada oshirishga qaratilgan yaxlit tizim yaratish bo‘yicha taklif ishlab chiqish vazifasini yuklatish ushbu ishlar samaradorligini yanada oshiradi, deb hisoblayman.

Bu borada bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi - ayollarimizga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta’minlashdir.

Bu o‘z navbatida, “Ayollarga ilm berish - jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish” degan aqidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi.

Nazorat savollari

1. Xalqparvar davlat barpo etishning mintaqaviy va umumbashariy omillarini sanab bering.
2. Yangi O‘zbekistonda yangilanish va taraqqiyot omillarini sanab bering.
3. Inson huquqlari sohasida Respublikada olib borilayotgan islohotlar haqida ma’lumot bering.

Savol-javob

1. Ma’muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad nima?

Ixcham va professional ijro organlari tizimini yaratishdan iborat.

2. Yangi O‘zbekistonda boshqaruv tizimining hududlar va sohalar bo‘yicha samarali faoliyat yuritishining sharti nimada?

Jamiyatning barcha sohalarini barqaror rivojlanishini ta’minlashda**.**

3. O‘zbekiston Respublikasining gender siyosatida asosiy masala nimaga qaratiladi?

Ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyat va huquqlarni yaratishga.

2-Mavzu: Ijtimoiy sohada davlat siyosatining takomillashib borishi va aholi farovonligini oshirish.

Reja:

1. Davlat dasturida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirish**.**
2. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar “davlat inson uchun” tamoyilining mazmuni sifatida.

Yangi O‘zbekistonda “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga amal qilish masalalari islohotlarimizning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

“Davlat - inson uchun” tamoyili - demokratik islohotlar mezoni yuqorida aytilganidek, yurtimizda uzoq yillar davomida “davlat - jamiyat - inson” tamoyiliga amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi. Aslida esa, avvalo, inson, uning haq-huquqlari va baxt- saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo‘lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g‘oyaga tayanishi hamda “Davlat - inson uchun” tamoyili asosida tashkil etilishi darkor.

Mazkur tamoyilga amal qilish esa, insonni va uning manfaatlarini davlat siyosati va islohotlarning asosiy mezoniga aylantirish lozimligidan dalolat beradi. Bu nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda mazkur islohotlarning eng demokratik tamoyillarga mosligi, ularning pirovard maqsadi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi inson manfaatlari, haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga qaratilganining e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Tarix shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha sivilizatsiyalar, madaniyat va dinlar inson huquqlari to‘g‘risidagi tayanch tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘lgan ezgu g‘oyalar ta’sirida vujudga kelgan.

Masalan, bundan 2700 yil muqaddam Osiyo hududida yaratilgan eng ko‘hna yozma yodgorlik - “Avesto” kitobida ham inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g‘oyalari muhim o‘rin tutadi, zo‘ravonlik va adolatsizlik rad etiladi. Shuningdek, Sharqning buyuk huquqshunoslaridan biri Burhoniddin Marg‘inoniy XII asrdayoq o‘zining “Hidoya” asarida har bir insonning haq-huquqini saqlash zarurligi to‘g‘risida muhim g‘oyani ilgari surgan edi.

Buyuk vatandoshimiz Muhammad ibn Mahmud Ustrushoniyning XIII asrda yaratilgan “Jomi’ ahkom as-sig‘or” (“Bola huquqlari kodeksi”) asari jahon tarixidagi bolalar huquqi bo‘yicha dastlabki mukammal huquqiy manbadir. Unda bolalar, xususan, yetim bolalar huquqlari, bolalik va otalikni belgilash, bola tarbiyasi, bolaning ota-onasi oldidagi burch va majburiyatlari kabi masalalar atroflicha tahlil qilinib, islom huquqi asosida qanday yechimlar mavjudligi ko‘rsatib berilgan. Ya’ni, ushbu asar bola huquqlari masalasiga tamal toshi aynan tarixiy Movarounnahr - bugungi O‘zbekistonda qo‘yilgani hamda islom huquqshunosligida G‘arb sivilizatsiyasidan qariyb olti yuz yil avval bolalar huquqining to‘la-to‘kis o‘rganilib, hayotga tatbiq etilganidan darak beradi. Ana shu muqaddas qadriyatlar bugun ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan va islohotlarimiz kun tartibiga hamohangdir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatga, jumladan, BMTning 7 ta asosiy shartnomasi hamda 4 ta fakultativ protokoliga qo‘shilgan. Ularning ijrosi yuzasidan BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi va shartnomaviy qo‘mitalariga muntazam ravishda milliy ma’ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta’minlash O‘zbekistondagi islohotlarda g‘oyat muhim o‘rinda turadi.

Eng asosiysi, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat’i nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi bo‘lib yashashi davlatning bosh maqsadiga aylanib bormoqda. 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning

huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadigan “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

Parlament, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, “Xalq - qonunlarning tom ma’noda yagona manbai va muallifi hisoblanadi” hamda “Barcha muhim qarorlar bevosita xalq bilan muloqot asosida, jamoatchilikning fikrini hisobga olgan holda qabul qilinadi” tamoyillarini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida milliy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, inson taraqqiyoti bo‘yicha yuqori indeksga ega bo‘lgan (intellektual salohiyati, savodxonligi, insonning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi) davlatlar darajasiga erishishga, ijtimoiy sohaga innovatsiyalarni keng joriy etishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

O‘zbekiston xalqaro huquq sub’ekti sifatida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda va xalqaro norma ijodkorligining faol ishtirokchisi va yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini tubdan o‘zgartirmoqda. Jamiyatda “Yangi O‘zbekistonni birgalikda barpo etamiz” degan ulug‘vor maqsad umumxalq harakatiga aylandi.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, umume’tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo‘mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirib borish ishlarini biz albatta davom ettiramiz.

Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini inson huquqlari bo‘yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish eng dolzarb vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Yurtimizning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so‘z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shart-sharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo‘yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakat qatoriga kirishi - bizning strategik maqsadimizdir.

Inson huquqlari buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta’minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlarni yaratish, inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy

tizimini yanada rivojlantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish bosh ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lib qoladi.

Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektor faoliyatining ochiqligi va o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlarni o‘tkazish amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Jamiyatda jinoyatchilikning, ayniqsa, odam savdosi, korrupsiya, qiynoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan siyosat davom ettiriladi.

Aholining imkoniyati cheklangan, kam ta’minlangan guruhlari huquqlarini BMTning Barqaror rivojlanish tamoyiliga muvofiq himoya qilishni ta’minlash, davlat va jamiyatning alohida himoyasiga muhtoj bo‘lgan shaxslar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish - navbatdagi muhim vazifamizdir.

Shu bilan birga, din, so‘z va fikr erkinligi, ma’lumot olish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, gender tenglikni ta’minlash, barchaning sifatli ta’lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanishi, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiyasi, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va migrantlar huquqlarini himoya qilish sohalarida huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanadi.

Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta’lim-tarbiya va umuman, ijobiy hislatlarni o‘rgatuvchi maktab bu - oiladir. Xalqimizda: “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan maqol bor. Tarbiya - oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog‘lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog‘lom bo‘lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo‘ladi. Lekin tagiga zil ketgan, mo‘rt oilalar oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonadonlar parokanda bo‘ladi. Bu esa, jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi. Shu bois, yurtimizda oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy, ijtimoiy- iqtisodiy va boshqa yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlash darajasini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Insonning iqtisodiy huquqlarini ta’minlash, xususiy mulkchilik va davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirishni yanada yuqori bosqichga

ko‘tarish zarur. Ta’limning sifati va barcha darajadagi qamrovini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, o‘qitish tizimining inklyuzivligi va undan barchaning foydalana olishini ta’minlash muhim vazifalarimiz sirasiga kiradi. Shuningdek, davlatlararo munosabatlarni, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini uyg‘unlashtirish, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomaviy organlarning tavsiyalarini sifatli va o‘z vaqtida bajarish maqsadida innovatsion tamoyillarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, biz bu borada belgilab olgan strategiyamizdan kelib chiqib, quyidagi bosh yo‘nalishlarni asosiy maqsad qilib qo‘ymoqdamiz.

Shaxsiy va siyosiy huquqlarni himoya qilish sohasida:

-shaxsiy va siyosiy huquqlariga oid xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan davlat organlari va mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirish;

-xalqaro huquq prinsiplari, normalari hamda O‘zbekistonning xalqaro shartnomalari sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan keng qo‘llanilishi, xalqaro huquq ustuvorligi prinsipini amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish; - sudlarning mustaqilligi va xolisligini ta’minlash maqsadida sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish hamda “Xabeas korpus” institutini yanada takomillashtirish yo‘li bilan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashda sud hokimiyatining rolini oshirish;

-sud jarayonlarida tenglik va tortishuv tamoyillarini to‘liq joriy qilish, advokaturani mustaqil, ishonchli huquqni himoya qiluvchi institutga aylantirish, malakaviy yuridik yordam sifatini hamda advokat kasbining nufuzini oshirish, inson huquqlari sohasida ixtisoslashgan huquqshunoslarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;

-jinoyat protsessida jabrlanuvchi va guvohlarning, jumladan, voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvohlarning huquqlari va xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish;

-prokuratura organlari faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiq shakllarini joriy etish, prokuratura faoliyati oshkoraligini va uning jamiyat oldida hisobdorligini ta’minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegial organlar rolini kuchaytirish;

-fuqarolarni tengsizlikning har qanday ko‘rinishlaridan hamda aholining zaif qatlam vakillarini kamsitishlardan himoya qilishni ta’minlash;

-shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma’lumotlarni himoyalash huquqini ta’minlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

-O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tili va madaniyatini rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni ta’minlash mexanizmini takomillashtirish;

-bepul yuridik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, voyaga yetmagan bolalarga nisbatan alohida munosabatni nazarda tutadigan odil sudlov institutlarini joriy etish, bolaning manfaatlarini birinchi navbatda ta’minlash prinsipini qonunchilik va amaliyotga yanada samaraliroq joriy etish;

-odam savdosiga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, bolalar va ayollar fohishabozligi va pornografiyasining sabablari hamda omillarini aniqlashga kompleks yondashuvni shakllantirish, shuningdek, odam savdosidan jabrlanganlarni xalqaro standartlarga muvofiq identifikatsiya va reabilitatsiya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish;

-aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini, saylov madaniyatini oshirish, demokratik, adolatli va erkin saylovlarga oid xalqaro standartlarni hisobga olgan holda saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish, saylov yoki referendum tashkil qilish, ularni o‘tkazish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

-inson huquqlari va erkinliklariga oid xalqaro standartlarni ta’minlashda, jismoniy va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy shikoyat institutini hayotga tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining o‘rni va rolini oshirish;

-davlat hokimiyati tizimida parlamentning rolini kuchaytirish, mamlakat ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalarini hal etishda, shuningdek, ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirishda parlamentning vakolatlarini yanada kengaytirish, parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish, jumladan, havolaki qonun normalaridan voz kechib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga soluvchi qonun normalarini qabul qilish amaliyotini kengaytirish;

-inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini yanada kuchaytirish;

-inson huquqlari sohasida fuqarolik jamiyati institutlarini faollashtirish va qo‘llab-quvvatlash.

Inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni qonunchilikka va huquqni qo‘llash amaliyotiga implementatsiya qilish hamda monitoring olib borish mexanizmlarini takomillashtirish sohasida:

-O‘zbekiston tomonidan radifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning mazmuni to‘g‘risida aholi hamda davlat organlari vakillarining xabardorligini oshirish;

-ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual tartibini takomillashtirish, ushbu tizimga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish;

-davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro yaqin hamkorlik o‘rnatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasining huquqiy asoslarini mustahkamlash;

-inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatining huquqiy asoslarini, qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmni yanada takomillashtirish, ozodlikdan mahrum qilish joylarida va boshqa yopiq muassasalarda inson huquqlari buzilishlarining oldini olish;

-Bola huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman)ning huquqiy maqomi va faoliyatini takomillashtirish;

-vasiylik va homiylik tizimini isloh qilish yo‘li bilan bolalarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqini ta’minlash, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, bola huquqlariga oid xalqaro standartlar qoidalarini implementatsiya qilish va mazkur sohada huquqni qo‘llash amaliyoti ustidan samarali parlament va jamoatchilik nazoratini ta’minlash;

-nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularga rioya etishni tizimli ravishda monitoring qilish.

Inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirish sohasida:

-inson huquqlari va gender masalalari bo‘yicha uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, jamiyatda qonunga hurmatni shakllantirishning zamonaviy usullarini joriy etish;

-inson huquqlari bo‘yicha professional jurnalistlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, jurnalistik tekshiruvlarning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish;

-oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlarni, jumladan, sudyalar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv markazlarida, shuningdek, maktabgacha ta’lim va umumta’lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bola huquqlari” o‘quv kurslarini joriy etish;

-inson huquqlari sohasidagi fundamental va innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy- tadqiqot muassasalarining ilmiy salohiyati, ilmiy tadqiqotlari va ishlanmalarining samaradorligini oshirish, ularning ushbu sohadagi xalqaro tadqiqotlarga integratsiyalashuvini ta’minlash, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish,

-inson huquqlari sohasida axborot tarqatish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada kuchaytirish, jurnalistlar va blogerlarning axborot olish va tarqatishga bo‘lgan huquqlari kafolatlarini kuchaytirish.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy mamlakatlarning inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish sohasida:

-inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha BMT, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi organlari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama va ko‘ptomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish;

-O‘zbekistonning inson huquqlari sohasidagi, jumladan, bolalar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, migrantlarning huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish masalalari bo‘yicha xalqaro hujjatlarga qo‘shilishi masalalarini ko‘rib chiqish.

Yangi O‘zbekiston - demokratik qonunlar, yuksak huquqiy madaniyatga ega fuqarolar mamlakatidir. Bu esa, ma’muriy, jinoyat, jinoyat-protsessual va xo‘jalik qonunchiligini yanada erkinlashtirish, ayrim jinoiy harakatlarni kriminallashtirishdan xoli qilish, tadbirkorlik sub’ektlari javobgarligini liberallashtirish, jinoiy jazolar va ular ijrosini insonparvarlashtirish kabi masalalarni anglatadi va bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish, yuvenal yustitsiyani rivojlantirish, mulkchilik to‘g‘risidagi qonunchilikni tubdan takomillashtirish, dunyoda tan olingan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning huquqiy maqomi, autsorsing mexanizmini joriy etish kabi ilg‘or tajribalarni qonunchiligimizga implimentatsiya qilish bu jabhaning rivojini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda. Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo‘lgan qiynoqlarning har qanday ko‘rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat’i nazar, ular uchun jazo muqarrardir.

Qiynoqlarga qarshi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilish kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar sirasiga kiradi. “Qiynoqlarning oldini olish bo‘yicha milliy preventiv mexanizm to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish zarur. *O‘zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiq qoladi*. O‘zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining *“Inson huquqlari yo‘lida*

harakatga da’vat” tashabbusini ilgari surish uchun barcha sheriklar bilan yaqin hamkorlikni davom ettiradi. Shu bilan birga, biz inson huquqlari borasida hali ulkan yo‘lning boshida turganimizni yaxshi tushunamiz va xalqaro hamkorlarimizning qo‘llab-quvvatlashiga umid bildiramiz. Yangi O‘zbekiston - mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo‘lining yuqori bosqichidir.

Yangi O‘zbekiston - bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘” degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir. Yangi-yangi uy-joylar, zamonaviy korxonalar, ta’lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo‘shayotgan tarixiy bir davrdir. Yangi O‘zbekiston - “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqga xizmat qilishi kerak” degan hal qiluvchi tamoyil amalda o‘z tasdig‘ini topayotgan mamlakat.

Yangi O‘zbekiston - kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, madadga muhtoj insonlar va oilalarga chinakam ko‘mak va yordam berish, mehr-oqibat ko‘rsatish hayotimiz qoidasiga aylanib borayotgan ijtimoiy makondir. Yangi O‘zbekiston - jahon hamjamiyati bilan, eng avvalo, yaqin qo‘shnilarimiz bilan do‘stlik va hamkorlik eshiklari keng ochilayotgan, mamlakatimizning jozibador demokratik qiyofasi yaratilayotgan bugungi betakror zamondir. Yangi O‘zbekiston - o‘zgarib, kuch-qudratga to‘lib borayotgan, dunyo ahli e’tirof etayotgan yangilangan jamiyat, dunyoga yuz tutayotgan erkin bir o‘lkadir. Bularning barchasi yurtimizda boshlangan islohotlar, kelajak sari tashlayotgan dadil qadamlarimizning bardavom bo‘lishini ta’minlash eng asosiy vazifamizga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda bu borada ham insoniyat to‘plagan tajriba, ayniqsa, o‘tgan asr o‘rtalaridagi tanazzul holatidan chiqib, bugun eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olgan davlatlar erishgan yutuqlarni, ular amalga oshirgan islohotlarni o‘rganish ko‘plab masalalarga javob topishda qo‘l kelishi mumkin. Chindan ham, XX asr oxiriga kelib rivojlangan davlatlar darajasiga yetgan mamlakatlar sermashaqqat islohot va o‘zgarishlar yo‘lidan bordi. Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur kabi davlatlar “yangi dunyo mo‘jizalari”ni yaratdi.

Bugun, bizning mamlakatimizda ham o‘z umrini yashab bo‘lgan eski qarashlar chekinib, yangi davr boshlandi, yangi voqelik bo‘y ko‘rsatmoqda. Ulkan imkoniyatlar, keng ko‘lamli islohotlar davri keldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “Jamiyatimizning yangi qiyofasi” tushunchasi qotib qolgan voqelik yoki o‘zgarmas aksiomani anglatmaydi. Yangi O‘zbekiston tushunchasi uchun asos bo‘layotgan va unda o‘z aksini topayotgan eng muhim jihatlar va amaliy mezonlar quyidagilardan iborat:

butun mamlakatimizda islohot va yangilanishlarning keng ko‘lamda amalga oshirilayotgani, eng muhimi, raqobatbardosh va tashqi dunyo uchun ochiq ijtimoiy-iqtisodiy makonni barpo etishga sobitqadamlik bilan kirishilgani;

mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy qarashlarga asoslanadigan yangi jamiyatni barpo etish g‘oyasi xalqimizning barcha qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani va el-yurtimizning bu g‘oya atrofida jipslashayotgani;

bu tarixiy jarayonda dasturilamal bo‘lib xizmat qilayotgan, mamlakatimizni rivojlantirish strategiyasini to‘liq amalga oshirish mas’uliyati butun xalqimiz tomonidan chuqur his etilayotgani;

ushbu maqsad yo‘lida aholining barcha qatlamlari, Hokimiyatning vakillik va ijro organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining imkoniyatlari keng ishga solinayotgani;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari, qadr-qimmati, ehtiyoj va manfaatlariga qaratilgani;

“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi” degan prinsip asosida barchaning mulk huquqini hurmat qilish, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uyg‘unligi tamoyili joriy etilgan kuchli fuqarolik jamiyati, konstitutsiyaviy parlament demokratiyasi, erkin bozor iqtisodiyoti mamlakatimiz va xalqimiz ravnaqining asosiga aylanayotgani;

-Yangi O‘zbekistonni erkin va baxtli odamlar yashaydigan qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish, bu borada mamlakatimizning dunyodagi 50 ta rivojlangan, iqtisodiyoti barqaror o‘sayotgan, inson kapitali yuqori bo‘lgan raqobatbardosh demokratik davlatlar qatoriga kirishini ta’minlashga harakat qilinayotgani;

-yangi jamiyatning navqiron avlodi, fuqarolik mas’uliyati va zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lgan barkamol yoshlar hayotga kirib kelayotgani va ularga munosib hayot sharoitlari, keng imkoniyatlar yaratilayotgani.

Bir so‘z bilan aytganda, jamiyatimizning yangi qiyofasi ana shunday serqirra islohotlar jarayonida barpo bo‘lmoqda, uning zamonaviy demokratik imiji bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Lekin bu osongina amalga oshmasligi, yangi jamiyat binosi bir kun yoki bir yilda tiklanib qolmasligi aniq. Inson manfaatlari ustuvor bo‘ladigan erkin va farovon hayot o‘z-o‘zidan shakllanmasligi shubhasiz. Insonlar orasida yangilikka intiladigan shaxslar, islohotlarga dahldorligini chuqur his etuvchi va o‘zgarishlarning omilkor ishtirokchisiga aylanadiganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bu fikrimizning mantiqiy davomi sifatida bugun jamiyatimizda “qonun - ustuvor, jinoyatga - jazo muqarrar” degan tamoyil qaror topmoqda. Tobora yangilanayotgan mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan islohotlar ochiqlik va oshkoralik zamoni, keng va chuqur yangilanish davrining timsoli sifatida amalga oshirilmoqda.

“Uchinchi Renessans poydevorini yaratish” g‘oyasi ham tasodifan va quruq yerda paydo bo‘lmagan, albatta. Yurtimizning nihoyatda boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga egaligi bu boradagi hayotbaxsh rejalarga asos berayotgani shubhasiz. Eng muhimi, jamiyatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda. Biz ana shunday mustahkam zaminga tayanib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida buyuk ishlarni boshlaganmiz. Erishilgan yutuqlarimizni mustahkamlab, yanada dadil va ulkan qadamlar tashlashimiz shart. Chunki yurtimizdagi islohot va o‘zgarishlar jarayoni, yuqorida qayd etilganidek, ortga qaytmaydigan tus olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda.

Bugun natijadorlik hammamiz uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda. Bu borada yaqin kelgusi yillar alohida mas’uliyat va sinov davri bo‘ladi. Endi kechagi yutuq va marralar bizni sira qoniqtirmaydi. Bu yo‘lda faqat amaliy samara bilan mustahkamlangan, o‘z mevasi, hosilini berayotgan islohot odamlarning qalbiga, yuragiga kirib boradi. Va bunday islohotni, bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch to‘xtata olmaydi.

Eng asosiysi, islohotlarimiz natijasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila o‘z kundalik hayotida his etishi kerak. Barcha bo‘g‘indagi rahbarlar qog‘ozdagi hisobotlar, foiz va raqamlar ortidan quvmasdan, har qaysi fuqaro uchun, uning hayotiy ehtiyoj va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish uchun ishlashi shart bo‘ladi.

2. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar “davlat inson uchun” tamoyilining mazmuni sifatida.

Yangi O‘zbekistonni o‘z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tomonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning asosiy maqsadidir.

Biz ushbu jabhadagi ezgu ishlarimizni davom ettirib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni bartaraf etishni davlat siyosati darajasiga ko‘tardik. O‘zbekiston tarixida ijtimoiy soha bo‘yicha bunday keng ko‘lamli ishlar ilgari hech qachon bo‘lmagan.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta’minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi. Ushbu toifani qo‘llab-quvvatlash va iqdisodiyotimizni tiklash uchun davlat budjetidan nihoyatda katta mablag‘ ajratildi.

Keyingi paytda uyma-uy yurib o‘rganish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashning o‘ziga xos fuqarobay va mahallabay yangi tizimi shakllantirildi. Shuningdek, moddiy yordam va ko‘makka muhtoj,

boquvchisini yo‘qotgan oilalarning farzandlarini va nogironligi bo‘lgan bolalarni qishki kiyim-bosh to‘plamlari, maktab formasi va o‘quv qurollari bilan ta’minlash maqsadida moddiy yordam ko‘rsatilmoqda.

Bizning oldimizda aholi bandligini ta’minlash va ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan zarur choralarni ko‘rish kabi muhim vazifa turibdi.

Ijtimoiy sohada bizni qiynaydigan bir qancha savollar bor, jumladan: mamlakatimizda barcha ishsizlar ish bilan ta’minlanayaptimi? Buning uchun yana nimalar qilish kerak? Xorijga ish qidirib ketganlarning qaysi muammolari hal etilmagan? Biz bir narsani to‘g‘ri tushunishimiz kerak: bitta ishsiz odam - o‘nta muammo degani. Bu muammolar ishsiz odamning o‘ziga, oilasi va mahallasiga, jamiyatga keltiradigan zararini hisoblasak, masalaning naqadar jiddiy ekani yanada oydinlashadi.

Ijtimoiy sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ham yaxshi tushunamiz. Avvalo, ijtimoiy himoyaga va doimiy yordamga muhtoj shaxslarni o‘z vaqtida hisobga olish mexanizmlarini samarali ishlatish, muhtojlik belgilari paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab ularni kuzatib borish va qo‘llab-quvvatlashning, shu jumladan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bunday shaxslarning ijtimoiy ahvolini ta’sirchan monitoring qilish, ularning turmush sharoitlarini har tomonlama baholash, individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, o‘z vaqtida zarur yordam ko‘rsatish imkonini beruvchi tizimni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratish darkor.

Jamoaviy yordam va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirish, ularning qulay muhitda bo‘lishi, shahar yo‘lovchi transporti, ijtimoiy va boshqa infratuzilma ob’ektlaridan tekin foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratish bu boradagi islohotlar ta’sirchanligini oshiradi.

Xotin-qizlar va yoshlarni ish bilan ta’minlash darajasini oshirish, ular tadbirkorligini rivojlantirish hamda og‘ir turmush sharoitida yashayotgan ayollarning og‘irini yengil qilishga xizmat qiladigan samarali faoliyat mexanizmlarining to‘la kuch bilan ishlamayotganini alohida ta’kidlash lozim. Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil qilish, nafaqadagi otaxonlar va onaxonlarni qaddini ko‘tarish hamda ularga har tomonlama yordam berish masalalarida ham kamchiliklar mavjud.

Soha rivojini ta’minlashga to‘sqinlik qilayotgan va ortiqcha qog‘ozbozlik bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi nomutanosib holatlar davlat ijtimoiy xizmati yoki yordamini taqdim etish vaqtini qisqartirish imkoniyatini bermayotganini ko‘pchilik mulozimlar yaxshi biladi.

Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu boradagi islohotlar bilan aloqador bo‘lgan idoraviy axborot tizimlari, elektron resurs va ma’lumotlar bazalari mavjud emasligi ham bu boradagi ishlarimiz rivojiga halal bermoqda. Mamlakatimizning ko‘plab hududlaridagi mehnat bozorida doimiy ish o‘rinlari mavjud emasligi va shu bilan birga yoshlar, xotin-qizlar, kam ta’minlangan oilalar a’zolari bandligini to‘la-to‘kis ta’minlashga erishilmagani ham ijtimoiy sohaga doir islohotlar samarasini kamaytirmoqda.

Ushbu sohada nogironlar, boquvchisini yo‘qotganlar va yordamga muhtoj aholi qatlami uchun maslahat-axborot berish xizmatlari va boshqa zarur xizmatlar darajasi pastligi, mazkur yo‘nalishda uchrayotgan kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etish zarurati bizni albatta bezovta qilishi kerak.

Ayniqsa, nogironlar uchun protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarining yetishmovchiligi, ba’zi hollarda ularni bahosining yuqoriligi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Ayni paytda tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, “Muruvvat” va “Sahovat” internat-uylarida vasiylikka olinganlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish vazifalari ham dolzarblashmoqda. Bu jihatdan, mamlakatimizdagi protez-ortopediya buyumlari va texnik reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni, shu jumladan chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, ularni ishlab chiqarishning zamonaviy standartlarini joriy qilish kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi.

Ijtimoiy soha islohotlarining yuqori samaradorligiga erishish, mavjud muammolarni bartaraf etishda quyidagilarga alohida e’tibor berish zarur:

-aholini ijtimoiy himoya qilish tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, aholining ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlariga davlat ijtimoiy xizmatlari va “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimini yanada rivojlantirish;

-idoralararo elektron hamkorlikni qo‘llash vositasida o‘zaro hujjat almashish jarayonini avtomatlashtirish orqali davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotnoma va tasdiqdovchi hujjatlar sonini tubdan qisqartirish bo‘yicha faoliyatni davom ettirish;

-belgilangan mezonlarga muvofiq kam ta’minlangan oilalarning extiyojmandlik darajasini ob’ektiv baholash, davlat ijtimoiy xizmatlari va yordamini taqdim etish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali qarorlarni qabul qilishda sub’ektiv yondashuvni bartaraf etishga erishish;

-aholining ehtiyojmand toifasi tarkibi o‘zgarishi dinamikasi monitoringi va tahlilini yuritish, ularni baholash mezonlarini respublika va hududlarning

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda takomillashtirishni davom ettirish;

-davlat ijtimoiy xizmatlari va ijtimoiy yordam oluvchilarning yagona ma’lumot bazasini muttasil yangilab borish; manfaatdor vazirlik, idoralar va tashkilotlarning uzlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarishda xizmatlarni bepul yoki imtiyozli asosda taqdim etishi uchun ma’lumot bilan ta’minlash choralarini kuchaytirish;

-nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va shu maqsadda nogironlik belgisi bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda teng sharoitlarni va ularni buzganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash;

-nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash sohasidagi umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni davom ettirish;

-tibbiy-mehnat ekspertizasi va nogironlikni belgilashning shaffof, zamonaviy uslub va mezonlarini joriy etish, nogironligi bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish darajasi va sifatini, jumladan, diagnostika, davolash va reabilitatsiyaning zamonaviy uslublarini qo‘llagan holda, yuqori texnologik ixtisoslashgan tibbiy va ijtimoiy yordamdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish orqali oshirish;

-tibbiy yordam darajasi va sifatini oshirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda tug‘ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar o‘sishining sabab va shart-sharoitlarini barvaqd aniqlash va oldini olishni ham nazarda tutuvchi profilaktika tadbirlarini kengaytirish bo‘yicha skrining tekshiruvlarining samaradorligini ko‘tarish;

-tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, “Muruvvat” va “Sahovat” internat-uylarida vasiylikka olinganlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiylashuvi samaradorligini oshirish;

-nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta’minlovchi inklyuziv ta’lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish;

-nogironlikni belgilash va tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish sohasida vakolatli davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, tartib-taomillardan o‘tishni yanada soddalashtirish.

Yana bir muhim masala - nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir. Butun mamlakat hududida ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini yanada kuchaytirish, ularning uy-joy, maishiy va boshqa yashash sharoitlarini

yaxshilashga qaratilgan tibbiy-ijtimoiy xizmat va moddiy yordamni kengaytirish, shu jumladan, sifatli yordamchi va texnik vositalar bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish lozim. Bu yo‘nalishdagi muhim vazifamiz mamlakatimiz urbanizatsiya darajasini 2025-yilga qadar 40 foizga yetkazish, butun aholining, jumladan, kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zahiralardan foydalanishi uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Aholimiz uchun olis-olis qishloqlarda ham shahardagidan kam bo‘lmagan yashash sharoitlari yaratish - muhim vazifamizdir. Aholini, eng avvalo, ehtiyojmand va yosh oilalarni arzon va zamonaviy, qulay uy-joy bilan ta’minlash, aholi uchun yashash joyi atrofida ish joylari yaratish, aholining ichimlik suvi, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatini yanada oshirish yo‘lidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz. 10 yil ichida shaharlarda markazlashtirilgan suv va gaz ta’minotini kamida 90 foizga, suv-oqava tizimi bilan ta’minlashni qariyb 70 foizga yetkazamiz. O‘zbekistan taraqqiyotining hozirgi yangi bosqichida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ta’minlash ko‘p jihatdan siyosiy jabhada, ayniqsa davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Bizning qadimiy tariximizda ham boshqaruvning demokratik ildizlari mavjud bo‘lganini, xalq hayotiga daxldor eng muhim masalalar qurultoy, kengash va mashvaratlar orqali hal etilganligini ko‘rish mumkin.

Bugungi O‘zbekiston - samarali parlamentarizm instituti faoliyat ko‘rsatayotgan mamlakatdir. Shu bilan birga, hayotning o‘zi bizdan ushbu yo‘nalishda ham professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo‘l ochib berishni talab etmoqda. Chindan ham, huquqni qo‘llash amaliyotiga ta’sir ko‘rsatmaydigan, ijro mexanizmlariga ega bo‘lmagan, ta’bir joiz bo‘lsa, ‘o‘lik” qonunlar kimga kerak? Barchamiz bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz lozim, qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart.

Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan - fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o‘rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak.

Oliy Majlis qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalb qilishi, buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishi, jumladan, Internet tarmog‘ida maxsus maydonlar yaratishga e’tiborni oshirishi ayni muddao bo‘lar edi. Oliy Majlis huzurida qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutini parlamentning istiqbolli reja va dasturlarini ishlab

chiqadigan, bu jabhadagi turli takliflarni tahlil qiladigan va zarur tavsiyalar beradigan ilmiy markazga aylantirish lozim, deb hisoblayman.

Oliy Majlis qonun ijodkorligi bo‘yicha, muayyan davrga mo‘ljallangan milliy faoliyat dasturini qabul qilishi maqsadga muvofiqdir. Uni ishlab chiqish jarayonida mamlakatimizning keyingi rivojlanish bosqichida qaysi qonun yoki qanday hujjatlarga ehtiyoj ko‘proqligini aniqlash va parlamentimiz o‘z faoliyatini ana shularni e’tiborga olgan holda rejalashtirishini bugungi hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Yana bir muhim masala - barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o‘rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta’sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega. Kuchli parlament va xalq vakillik organlari - Yangi O‘zbekistonning tayanchidir. Hokimiyat vakolatlari bo‘linishi, ular o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini saqlash prinsiplarini izchil amalga oshirish, xalq hokimiyatini, parlamentarizmni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar sifat jihatidan yangi bosqichda davom ettiriladi. Davlat hokimiyati organlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining rolini yanada oshirish bilan bir qatorda, uning tarkibiy bo‘linmalari palatalar, qo‘mitalar, komissiyalar va kengashlar funksiyalarini maqbullashtirish va mas’uliyatini yanada kuchaytirish zarur. Parlament saylovlarida g‘olib bo‘lgan siyosiy partiya yoki ularning birlashmalari tomonidan parlamentning rahbar organlari va hukumat tarkibini shakllantirish amaliyotiga to‘liq o‘tish vaqti keldi, deb hisoblaymiz. Bu o‘z navbatida, ko‘ppartiyaviylikni mustahkamlash, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini oshirish, hokimiyatning vakillik organlari faoliyati samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda ham raqamlar ketidan quvish amaliyotidan voz kechish lozim. Qog‘ozda yuzlab masalalarni hal qilgandan ko‘ra, amalda bir nechta aniq muammoni hal qilib bersak, bundan foyda ko‘proq bo‘ladi. Eng muhimi, hayotdagi o‘zgarishlarni xalqimiz bilishi, davlat hokimiyati tizimida haqiqatda ham o‘z vakili borligini sezishi kerak. Bo‘lmasa, barcha ishlarimiz, tadbirlarimiz zoe ketadi. Ko‘pgina rahbarlar aholi kutayotgan hayotiy muammolarni hal qilish o‘rniga keraksiz qog‘ozbozlik va natijasiz majlislar o‘tkazish bilan ovora bo‘lib qolishayotganini afsus bilan qayd etish joiz.

Yana bir jiddiy kamchilik shuki, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan xodimlar sonini va ish jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha yetarli choralar ko‘rilmayapti. Shuning uchun Hukumat boshqaruvda bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to‘siqlarni qisqartirish bo‘yicha faoliyatini yanada samarali tashkil etishi lozim. Bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini yanada optimallashtirishni nazarda tutish zarur.Islohotlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o‘z ifodasini topishi, kutgan natijalarimizga erishish ko‘p

jihatdan davlat boshqaruvidagi samaradorlikka bevosita bog‘liq ekan, bu boradagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

parlamentarizmni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, xalq hokimiyatini yanada kuchaytirish;

qonun ijodkorligi borasidagi faoliyat sifatini tubdan oshirish, qonunchilik bazasini tizimlashtirish va qonunosti hujjatlari sonini keskin qisqartirish, qonun ijodkorligida “aqlli tartibga solish” modeli elementlarini qo‘llash zarur. Bizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunlar kerak va qonunosti hujjatlari bilan umummajburiy normalar belgilashni to‘xtatish zarur;

normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida keng jamoatchilikning ishtirokini hamda jamoat tashkilotlarining bu boradagi aniq belgilab qo‘yish lozim. Xalq deputatlari kengashlari faoliyatini takomillashtirish, ularning vakolatlarini kengaytirish, eng muhimi - hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, real daromadlarning barqaror o‘sishi, turmush darajasi va sifatini oshirish, mahalliy budjetni shakllantirish hamda nazorat qilish bo‘yicha mas’uliyatini kuchaytirish kerak;

shu maqsadda xalq vakillik organlarining fuqarolar uchun ochiqligini ta’minlash, **“Elektron parlament”** va **“Elektron Xalq kengashi deputatlari”** kabi konsepsiyalarni hayotga izchil tatbiq etish lozim;

boshqaruv sohasida ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishimiz darkor;

davlat boshqaruvida bir-birini takrorlaydigan idoralar, funksiyalar va byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, bunda davlat boshqaruvi xodimlari sonini raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hisobidan optimallashtirish choralarini ko‘rish zarur.

Ayni paytda bugungi shiddatli zamonning ehtiyojlari barqaror bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohalar, jumladan, tibbiyot, ta’lim va ilm-fan yo‘nalishlaridagi boshqaruv, tashkiliy va muvofiqlashtirish ishlarni takomillashtirish bo‘yicha ham qator islohotlarni amalga oshirishni talab qilmoqda.

Biz O‘zbekistonni eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish, yurtimizning yangi qiyofasini yaratish g‘oyasi osongina amalga oshmasligi, yangi jamiyat binosi bir kunda tiklanib qolmasligini yaxshi anglashimizni yuqorida ta’kidlab o‘tdim. Darhaqiqat, orzuimizdagi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amallar ustuvor bo‘ladigan ijtimoiy makon, maqsad-muddaolarimiz timsoli bo‘lgan erkin va farovon hayot ham o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi, albatta.

Shu sababdan ham biz 2016-yil nihoyasida davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish borasidagi eng muhim maqsad va ustuvor vazifalarimizni belgilab olishga harakat qildik.

Biz o‘z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo‘ydik.

So‘nggi besh yil mamlakatimizning har bir fuqarosi o‘z kundalik hayotida teran his etayotgan beqiyos o‘zgarish, yangilanish va tub islohotlar davri bo‘ldi.

Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma’naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko‘rib chiqish, bu borada ta’sirchan va samarali mexanizimlarni yaratish, demokratik tamoyil va me’yorlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha misli ko‘rilmagan keng ko‘lamli va izchil chora-tadbirlarni amalga oshirdik.

Bunda odamlarni hayotdan rozi qilish, ularning mavhum kelajakda emas, balki bugun farovon yashashini ta’minlash, ularning hayotiy muammolarini hal etish va orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishni oliy maqsad etib belgiladik.

Faqat xalqimizning azmu shijoati, kuch-qudrati, metin irodasi, eng muhimi, mustaqil taraqqiyotga bo‘lgan komil ishonchi tufayli oldimizda turgan maqsadlarimiz sari dadil qadam qo‘ymoqdamiz.

Tan olish kerakki, hayotning o‘zi va islohotlar shiddati mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar bilan bir qatorda jamiyat va davlat hayotida yillar davomida yig‘ilib qolgan va o‘z yechimini kutayotgan tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu muammolarni qisqa vaqt ichida yechish uchun o‘zimizda iroda, qat’iylik va shijoat topa oldik.

Inson bolasi borki, orzu-umid bilan yashaydi. Davlat va jamiyat uning orzu va maqsadlari ushalishiga yordam berishi shart va zarur. Biz ana shunday davlatni - qalbimiz va ongu shuurimizdan mustahkam o‘rin olgan Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qat’iy bel bog‘ladik.

Biz o‘n yillar, asrlar davomida amal qilib kelingan “davlat - jamiyat - inson” tamoyilini “inson - jamiyat - davlat” tamoyiliga o‘zgartirdik. Yurtimizda “Davlat - inson uchun” g‘oyasi amal qila boshladi.

Xalq bilan bevosita muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, muammolarini ijobiy hal etish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi faoliyatini yo‘lga qo‘ydik. Davlat tashkilotlari faoliyatida “mahallalar kesimida ishlash” “xalq ichiga kirish” uning “dardiga quloq solish” “tashvishiga sherik bo‘lish” va “muammolarni joyida hal etish” tamoyillari o‘rnatildi.

Buyuk Alisher Navoiy bobomizning “bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash - odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning

g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi”, degan ma’nodagi fikrlari mazmunini o‘zimiz uchun qaytadan kashf etdik.

Davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lamini kengaytirish orqali aholi uchun qulay muhit yaratish maqsadida barcha davlat idoralari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni muvofiqlashtirib va nazorat qilib boradigan yangi tuzilmalar foliyati yo‘lga qo‘yildi.

Davlat xizmatlari agentligini tashkil etib, xizmatlar qamrovini 200 taga yetkazishga erishdik. Aholiga kuniga o‘rtacha 60 mingtadan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilmoqda.

Milliy parlamentarizmni rivojlantirish va xalq hokimiyatini mustahkamlash, davlat boshqaruvi organlari hisobdorligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy choralar amalga oshirilmoqda. Xalq deputatlari Kengashlari faoliyati takomillashtirilib, ularning vakolatlari kengaytirilmoqda. Eng muhimi, ushbu tuzilmalarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini barqaror oshirishdagi mas’uliyatini kuchaytirmoqdamiz.

Davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishi sohalarida tub yangilanishlar joriy etilmoqda. Yangi boshqaruv tizimi va zamonaviy tuzilmalar yaratildi. Davlat boshqaruvida ochiqlik va adolatga asoslangan, xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllanmoqda.

Jamiyatda aholi va partiyalarning siyosiy faolligi, fuqarolik jamiyati institutlari roli, ommaviy axborot vositalarining ta’siri kun sayin oshib bormoqda.

Xalqaro saylov standartlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilinib, uning asosida “Yangi O‘zbekiston - yangi saylovlar” shiori ostida bo‘lib o‘tgan saylovlarda ilk bor 5 ta siyosiy partiya ishtirok etdi. Saylovlarning ochiq-oshkora, xalqaro standartlar asosida o‘tkazilishini nazorat qilish uchun 50 ga yaqin davlat hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 nafar kuzatuvchi, jumladan, birinchi marta Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining to‘laqonli missiyasi ishtirok etdi.

Xalqimiz hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolatni hayotimizda tom ma’noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylandi.

Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash - Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir.

Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, qonun ustuvorligini ta’minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish ishlari hayotga izchil tatbiq etilmoqda, sud hokimiyatining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirmoqdamiz.

Konstitutsiya va qonun normalari so‘zsiz ishlashi uchun ishonchli huquqiy kafolat yaratilmoqda.

Inson huquqlari sohasida ham holat tubdan o‘zgardi. Majburiy mehnat va bolalar mehnati to‘liq bartaraf etildi. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiyani qabul qildik. Ilk bora O‘zbekiston BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo etib saylangani olib borayotgan siyosatimizning yuksak xalqaro e’tirofidir.

Xalqimizning bu boradagi taraqqiyot strategiyasi nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning insonga, xalqqa, xalqning davlatga bo‘lgan munosabati o‘zgarayotganida ham namoyon bo‘lmoqda.

Sud-huquq sohasi, jumladan, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi islohotlarimiz ham izchil davom ettirildi. Ko‘p yillar davomida saqlanib kelgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud idoralarining asosan jazolashdan iborat bo‘lgan funksiyasiga chek qo‘yildi. Bu esa, ajdodlarimiz azaldan amal qilib kelgan “Zulm qilma, insofli bo‘l, xalq uchun adolat qo‘rg‘onini bunyod et”, degan hayotiy tamoyiliga to‘la mosdir.

Biz sud-huquq tizimini isloh etishda shunday hayotiy talablardan kelib chiqdik. Xususan, “sudyaning ongida - adolat, tilida - haqiqat, dilida - poklik bo‘lishi kerak”, degan g‘oyani ilgari surdik va uni amalda qaror toptirishga intilmoqdamiz.

Hibsga olingan va jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan qiynoqqa solish, ruhiy hamda jismoniy bosim o‘tkazish va boshqa g‘ayriinsoniy zo‘ravonlikka solish holatlariga qarshi prinsipial kurash boshladik. Fuqarolarni soxta dalillar, tuhmat va bo‘htonlar asosida javobgarlikka tortishdek nomaqbul amaliyotga barham berildi.

Yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo‘lmagan minglab vatandoshlarimizga O‘zbekiston fuqaroligi berildi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu borada muhim qonun hujjatlari qabul qilindi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etildi.

Biz erkin va kuchli iqtisodiyotni Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim sharti va garovi, deb bilamiz.

Bu borada mamlakatni iqtisodiy izolyatsiya, ya’ni o‘z qobig‘iga o‘ralib qolish holatidan chiqarish hamda demografik o‘sish ko‘rsatkichlariga mutanosib ravishda liberallashtirish jarayonlarini olib bormoqdamiz.

Iqtisodiy siyosatda noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek nomaqbul ish uslubiga tag-tomiri bilan barham berildi.

Yangi O‘zbekistonda amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari iqtisodiy islohotlarimizning bosh mezoniga aylandi.

Qisqa muddatda valyuta bozorini liberallashtirish, milliy iqtisodiyotning xalqaro iqtisodiy tizimlar bilan integratsiyasini kuchaytirish, unda davlat ishtirokini kamaytirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga erishdik.

Islohotlar aholining barcha qatlamlari manfaatlariga xizmat qilmoqda: tadbirkorlar o‘z biznesini rivojlantirish uchun erkinlik va yangi-yangi imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda, dehqon va fermerlar, klaster ishchi-xizmatchilari o‘zlari yetishtirgan hosil va mahsulotning haqiqiy egasiga aylanmoqda.

Kichik va xususiy biznes sub’ektlari soni ikki barobar ko‘paydi, ushbu tarmoqdagi biznes sub’ektlarining 50 foizdan ziyodi keyingi 3 yil ichida tashkil etildi. Tadbirkorlik sub’ektlariga 2016-yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p kreditlar ajratildi. Zero, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash - fuqarolar, xalqimiz farovonligini oshirish, o‘rta sinfni mustahkamlashning eng samarali yo‘lidir.

Keyingi besh yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 83 milliard AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritilishiga erishildi. Ko‘plab yirik, o‘rta va kichik, xususan, mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi va servis sohalaridagi loyihalarni amalga oshirish orqali qariyb 2,4 millionta yangi ish o‘rni yaratildi.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 25 foizdan 33 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1,3 marta o‘sdi. Yalpi ichki mahsulotning qariyb 2 barobar, aholi daromadlarining 2,5 barobarga, ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorining ham sezilarli o‘sishi ta’minlandi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, yer maydonlarining to‘liq xususiy klasterlarga berilgani hosildorlik ortishiga xizmat qilmoqda.

Turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha butunlay yangi tizim yaratildi. Natijada sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 3 barobarga ortdi.

Biz O‘zbekistonning yangi tarixida ilk bor kambag‘allikni kamaytirish haqidagi qat’iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e’lon qildik va uni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni boshladik. Kambag‘allikni qisqartirish, aholini arzon uy-joy va ichimlik suvi bilan ta’minlash, ehtiyojmand oilalar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘ydik.

Fuqarolarning ijtimoiy va madaniy huquqlarini ta’minlashning noyob tizimi yaratildi. “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar - kelajagimiz”, “Besh muhim tashabbus” kabi 20 dan ortiq davlat ijtimoiy dasturlari va konsepsiyalari amalga oshirilmoqda.

Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilashga qaratilgan ishlar natijasida aholini markazlashgan tarmoqlar orqali ichimlik suvi bilan ta’minlash darajasini 73 foizga yetkazdik.

Nuroniy otaxon va onaxonlarimizga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni ko‘rdik. Uyida o‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarni ijtimoiy xizmat bilan qamrab olish darajasi 8,3 foizga oshirildi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi tatbiq etildi.

Sog‘liqni saqlash sohasini isloh etish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash maqsadida qishloq vrachlik punktlari, tez tibbiy yordam xizmati, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha ishlarimiz o‘z samarasini bermoqda.

Tez tibbiy yordam brigadalari sonini 2 marta, ixtisoslashtirilgan hududiy tibbiyot markazlari sonini 16 taga ko‘paytirdik. Hududlarda 300 dan ziyod ixtisoslashgan bo‘lim, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy amaliy tibbiyot markazlarining 14 ta filiali faoliyatini yo‘lga qo‘ydik. Hududlardagi 1,4 mingdan ortiq davolash muassasasi to‘liq ta’mirlandi, 1,8 mingta ayollar maslahatxonasi, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar, tez tibbiy yordam shoxobchalari hamda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinikalar tashkil etildi.

“Ayolni e’zozlash - ezgulik va adolat mezoni”, degan g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida aholimizning qariyb yarmini tashkil etadigan ayollarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish, iste’dodi va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, onalik va bolalikni himoya qilish davlat siyosatining markaziga qo‘yildi.

Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rnini tobora kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgiladik. Mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushini 33 foizga yetkazildi. Yurtimiz bo‘yicha 1,5 mingga yaqin xotin-qiz mutaxassislar turli darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlandi.

Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini qabul qildik.

Bu muhim masalada bir qator qonun xujjatlari qabul qilindi. Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir. Xotin-qizlar uchun 197 ta zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish, o‘z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha 200 dan ortiq innovatsion maktablar tashkil etildi. Erkaklar va ayollar uchun nikoh tuzishning minimal yoshi o‘n sakkiz yosh etib belgilandi.

Barcha hududlarda ayollarni qiynayotgan muammolarni aniqlash bo‘yicha manzilli ishlar olib borish uchun yangi tizim - “Ayollar daftari” joriy etildi. So‘nggi 3 yil davomida 400 ming nafarga yaqin xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Uy-joyga muhtoj opa-singillarimizga boshlang‘ich badallar to‘lab berildi.

Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning o‘qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar - Yangi O‘zbekiston bunyodkorlaridir!

Yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar, yetuk mutaxassislar etib tarbiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni olib bormoqdamiz.

“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi qonun qabul qilindi. 30-iyun kuni O‘zbekistonda Yoshlar kuni sifatida keng bayram qilinmoqda.

O‘zbekiston Yoshlar parlamentlari, Yoshlar ishlari agentligi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yigit-qizlarning biznes tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar ajratish, kasb-hunarga o‘qitish, fermerlikni qo‘llab-kuvvatlash, farzandlar ta’lim- tarbiyasi, ularni sog‘lomlashtirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, “Yoshlar daftari” orqali ularga ko‘maklashish kabi yo‘nalishlarda davlat tomonidan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoqda.

Mamlakatimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan ta’lim sohasida - maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

2026-yilga borib, 3-7 yoshdagi bolalarning 80 foizini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni nazarda tutuvchi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi hayotga joriy etilmoqda. Bugungi kunda kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 28 foizdan 74 foizga yetkazishga, bog‘chalar sonini esa 5 barobar ko‘paytirib, 30 mingtadan oshirishga erishdik.

Maktab ta’limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish borasidagi islohotlarni jadal davom ettirmoqdamiz. Ota-onalarning fikrini hisobga olib, yurtimizda 11 yillik ta’limni qayta tikladik. Yangi ta’lim muassasalarini qurish, mavjudlarini ta’mirlashga e’tibor qaratmoqdamiz. Minglab maktablarda elektr energiyasi, ichimlik suvi ta’minoti, isitish tizimi yaxshilandi, oshxona, sport zallari va boshqa zarur binolar barpo etildi.

Mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo‘lgan Prezident maktablari hamda ijod maktablari bo‘yicha ishlar faol davom ettirilmoqda. Matematika,

kimyo-biologiya va boshqa fanlarni rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qildik. Har bir tuman va shaharda ana shu fanlarga ixtisoslashgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Murabbiylar mehnatiga munosib haq to‘lash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotidagi o‘rni va ahamiyati oshib bormoqda, bu borada milliy hamda xalqaro darajada ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 21-oktabr - O‘zbek tili bayrami kuni deb e’lon qilinishi jamoatchiligimiz, butun xalqimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.

Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish va yangi sifat bosqichiga ko‘tarish bo‘yicha ulkan ishlar olib bordik. Besh yilda 50 ta yangi oliy ta’lim muassasasini tashkil etdik. Ta’limning bakalavriat, magistratura va sirtqi shakllari uchun kvotalarni oshirib, kechki ta’lim shaklini joriy qildik. Oliy ta’limga qabul parametrlarini 2,5 marta oshirib, yoshlarimizni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 9 foizdan 28 foizga, sohaga ajratiladigan davlat grantlari soni 25 foizga yetkazildi.

Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizni ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va yangilash muhim vazifamizga aylandi. Shu sababli O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimini qayta tikladik va takomillashtirdik, uni to‘laqonli faoliyatga qaytarish uchun zarur choralarni ko‘rdik. Bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyatini qayta tashkil qildik, ilmiy laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozladik.

Bularning barchasidan yagona maqsadimiz - maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy halqasiga, bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida aholining sifatli tibbiy-sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati oshdi. Eng asosiysi, mamlakatdagi O‘rtacha umr ko‘rish darajasi 1990 yildagi 67,2 yoshdan 2020 yilga kelib 74,6 yoshga yetdi, onalar o‘limi bir yarim marta, bolalar o‘limi esa to‘rt marta kamaydi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlarimizda ma’naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari faoliyat yuritmoqda.

Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va

innovatsion loyihalarni shakllantirish va belgilangan tartibda moliyalashtirish tartibi joriy qilindi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yuqori saviyada amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga topshiriladigan “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Mamlakatimizda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasida ham vaziyat tubdan yaxshilandi. Bu boradagi faoliyatimizning o‘zagini “Bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik - barqaror taraqqiyot omili”, degan tamoyil tashkil etadi.

Millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro do‘stlik kuni deb belgilangan 30-iyul sanasini yurtimizda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb e’lon qilindi va har yili uni keng nishonlab kelinmoqda. Bu bayram ezgu an’anaga aylanib, xalqimizni jonajon Vatanimiz bayrog‘i ostida yanada jipslashtirishga xizmat qiladi.

Turli yot oqimlar ta’siriga berilib, qilgan ishidan chin dildan pushaymon bo‘lgan 20 mingdan ziyod fuqaro maxsus hisobdan chiqarildi, 1,5 ming nafardan ortiq mahkum afv qilindi va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam berildi.

“Mehr” maxsus operatsiyalari doirasida xalqaro terrorchilik tashkilotlari safiga adashib kirib qolgan, urush dahshatlarini boshidan kechirgan yuzlab ayollar va bolalar qurolli mojarolar hududidan yurtimizga qaytarildi.

Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalari qatorida, harbiy sohaning eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli va strategik chora-tadbirlarni belgiladik va amalga oshirmoqdamiz. Yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi.

Qurolli Kuchlar tarkibidagi barcha qo‘shin turlarining tuzilma va vazifalarini qayta ko‘rib chiqildi va hududlarda harbiy-ma’muriy sektorlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada Qurolli Kuchlarning jangovar shayligi va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini sezilarli darajada oshirishga erishdik.

Yangilanayotgan O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib bormoqda. O‘tgan davr mobaynida tashqi siyosat sohasida xorijiy davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishdik.

Mamlakatimiz o‘z tarixida birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashiga a’zo etib saylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbaridan ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslarimiz dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinib, qo‘llab-quvvatlanmoqda.

“O‘zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo - bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishdik. Natijada mintaqamizda

mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik asosidagi aloqalar mustahkamlanmoqda.

Biz qo‘shni Afg‘oniston bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ichki ishlarga aralashmaslik tamoyillariga asoslangan siyosatni sobitqadamlik bilan hayotga tatbiq etmoqdamiz. Ushbu mamlakatda tezroq tinchlik va barqarorlik o‘rnatilishi uning Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlashda ishonchli ko‘prik vazifasini bajarishiga xizmat qiladi.

Rossiya, Xitoy, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari, musulmon mamlakatlari bilan ham hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi kabi xalqaro tuzilmalar bilan manfaatli aloqalarni yangi bosqichda davom ettirmoqdamiz. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorligimiz tiklandi, Yevropa investitsiya banki bilan sheriklik aloqalari o‘rnatildi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki bilan o‘zaro hamkorlik samarali tus olmoqda.

Xalqimizning mustahkam irodasi, fidokorona mehnati, sabr-toqati, aholi va davlat organlarining birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tmoqdamiz.

Biz jamiyatimiz taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masalalar va o‘z yechimini kutib turgan muammolarni hal etish uchun keng ko‘lamli faoliyatimizni izchillik bilan qat’iy davom ettiramiz. Keyingi yillarda ham bizning ustuvor vazifamiz dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta’minlashdan iborat bo‘lib qoladi.

Ayni paytda mamlakatimizning yangi qiyofasini yaratish, fuqarolarimiz salohiyatini ro‘yobga chiqarishga har tomonlama ko‘maklashish, aholimizning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifalari ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jamiyatimiz xavfsizligi, chegaralarimiz daxlsizligi, tinchlik va barqarorlik, erkin va ozod hayotni ta’minlash, samarali tashqi siyosatni amalga oshirish bundan keyin ham diqqat-e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Ijtimoiy sohada samarali mexanizmlarni yaratishga doir fikrlaringizni ayting.

2. Fuqarolarning jamiyat va davlat bilan o‘zaro aloqasini kuchaytirishga oid yo‘nalishlar haqida munosabatingizni bildiring.

3. “Davlat - inson uchun” tamoyili - demokratik islohotlar mezoni masalasiga munosabat bildiring.

Savol-javob

1. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha nechta xalqaro hujjatga a‘zo?

80 dan ortiq

2. Bugungi kunga kelib ijtimoiy nafaqa bilan ta’minlanadigan aholi soni qanchaga oshirildi?

qariyb 1,5 barobar

3. Mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushi necha foizga yetkazildi?

33 foizga yetkazildi

3-Mavzu: Ta’lim tarbiya sohasidagi islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi.

Reja:

1. Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish va ta’lim sifati samaradorligini oshirish.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifati samaradorligini takomillashtirish.

1. O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun harakat qilar ekan, har tomonlama rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirishni o‘zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Ta’lim sohasida maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosatini olib borish va bu vazifani yechishda asosiy vositalardan biridir. Ta’lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga (1948 yil) asoslanib berilgan huquqni amalga oshirishning faoliyat ko‘rsatayotgan mexanizmini yaratdi. Ta’lim olish huquqiga tegishli xalqaro hujjatlar (1960 yil 14 dekabrdagi Ta’lim soxasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya) shuni e’tirof etadiki, “ta’lim” iborasi o‘qitishning barcha turlarini va bosqichlarini qamrab oladi va ta’lim olish imkoniga ega bo‘lish, ta’limning darajasi va sifati, shuningdek, ta’lim berish sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Xalqaro huquq normalari boshlang‘ich ta’limning majburiy va bepul qilishni, o‘rta ta’limni uning barcha turlarida umum erishadigan qilishni va undan hammaning foydalanishini ta’minlashni, oliy ta’limni to‘la tenglik asosida va har bir kishining qobiliyatidan kelib chiqib barcha erisha oladigan qilishni, qonunda belgilangan o‘qishning majburiyligini ta’minlashni tavsiya etadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zi olgan majburiyatlarga amal qilib uzluksiz ta’limning barqaror tizimini yaratdi, shaxsning ta’lim olish huquqini amalga

oshirish mexanizmini mustahkamlab qo‘ydi. Ta’limning yagona tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Ta’lim shakli va bosqichlarining ko‘p xilliligi shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda uning ta’lim olish huquqini iloji boricha to‘laroq amalga oshirishga imkon beradi.

Ta’lim olish huquqining mazmuni shundan iboratki, u O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi uchun ta’lim va tarbiyaning barcha shakllaridan teng foydalanish imkoniyatini beradi. Ta’lim olish huquqini amalga oshirish quyidagilar orqali ta’minlanadi:

-ta’lim olish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

-davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining tarmog‘ini yaratish;

-davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning barcha uchun imkoniyati borligi;

-davlat ta’lim muassasalaridagi ta’limning bepulligi;

-tayanch ma’lumoti olishning majburiyligi;

-ta’limning turli shakllarini qo‘llash;

-ta’lim muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarga qaram emasligi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi deb ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta’lim va tarbiya umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Davlat faqat ta’lim olish huquqini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratibgina qolmay, mamlakatdagi maktab ishlarini nazorat ham qilib turadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda har bir kishining ehtiyojiga ko‘ra ta’lim olish huquqini ta’minlashning ishchan mexanizmi shakllangan bo‘lib, u tegishli moddiy - texnik shart - sharoitlar bilan mustahkamlangan. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilishga bag‘ishlangan barcha qonunlar va huquqiy hujjatlar negizida Konstitutsiyada nazarda tutilgan demokratik ruh bilan sug‘orilgan asosiy g‘oya va qoidalar yotadi. Konstitutsiya asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha qonunlar Konstitutsiyaviy tamoyillarni ijtimoiy hayotning turli sohalarida joriy etilishi uchun muhim vosita vazifasini bajaradi.

Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim va o‘qitish sifati samaradorligini oshirish.

So‘nggi yillarda mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona vatanimizda Uchinchi renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy madaniy dargohlari bo‘lg‘usi renessansning eng muhim bug‘inlaridir. Ayni shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma’rifat egalari, jismoniy va ma’naviy sog‘lom insonlar etib tarbiyalash, ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimi o‘z ichiga Maktabgacha ta’lim umumiy o‘rta ta’lim o‘rta maxsus ta’lim, oliy ta’lim, magistratura, doktarantura, malaka oshirish va qayta tayyorlash va inson umri oxiriga qadar ta’lim olish bilan bog‘liq bo‘lgan mukammal tizimni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida keltirilgan tizimni har bir bo‘g‘ini samaradorligini amalga oshirish bobida 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2019-yil 8-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Qarori qabul qilindi.

Ayniqsa, 2020-yilning 6-noyabr kuni Prezident tomonidan imzolangan “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim, tarbiya va ilm, fan sohalarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni va “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim va o‘qitish sifati samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynadi.

Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim va o‘qitish sifati samaradorligini oshirish bobida keyingi yillarda ichida katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdik.

Yaqin yillargacha mamlakatda bolalarning maktabgacha ta’limga qamrovi 30 foizga ham yetmasdi. Sohani tubdan isloh etish maqsadida Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etilib, maktabgacha ta’lim qamrovi oshirildi.

Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratildi.

2023-yil yakuni bilan maktabgacha ta’lim qamrovini 75 foizga yetkazishimiz kerak. Bu ishlarga byudjetdan 600 milliard so‘m subsidiya berish hisobidan qo‘shimcha ravishda 2 mingta nodavlat bog‘cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkaziladi[2].

Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta’limning muqobil shakllari yanada kengaytiriladi. Bunda YUNISEF hamda Jahon banki bilan hamkorlikda imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta’limni uyda berish modeli ham yo‘lga qo‘yiladi.

Maktabgacha ta’limni tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, tizim xodimlariga munosib sharoit yaratish borasidagi islohotlar jadal davom ettiriladi.

Sohada yagona “elektron ta’lim” tizimini joriy etishga kelgusi 2 yilda 250 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, o‘qituvchi va domlalar uchun metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish lozim.

Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur. Bu borada kelgusi o‘quv yilida boshlang‘ich sinflarda davlat ta’lim standarti o‘rniga, ilg‘or xorijiy tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan “Milliy o‘quv dasturi” joriy etiladi.

Umumta’lim maktablaridagi ta’lim sifati poytaxtda ham, olis qishloqlarda ham yuqori bo‘lishi shart. Buning uchun chekka hududlarda maktablarni malakali kadrlar bilan ta’minlash, ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Jumladan, boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o‘qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa – 100 foiz ustama haq to‘lanadi[3].

Shuningdek, hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag‘batlantirish uchun byudjetdan subsidiyalar ajratiladi.

---

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.

[3] Sh.M. Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabiylar kuniga” bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi so‘zlagan nutqi. 2020-yil 30-sentabr.

Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan uzluksiz tizim yaratiladi.

Iqtidorli o‘g‘il-qizlarimizning yuqori texnologiyalar va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga keng sharoit yaratish hamda raqobatbardosh milliy kadrlarning yangi avlodini tayyorlash maqsadida Toshkent shahrida yangi zamonaviy universitet tashkil etildi. Ushbu oliygohda chet eldagi yetakchi olimlar va professor-o‘qituvchilar jalb qilinib, yoshlarga eng zamonaviy dasturlar asosida ta’lim-tarbiya beriladi.

Bolalarimizning mehnat ko‘nikmalarini maktab davridan boshlab shakllantirib borish maqsadida “kasbga o‘rgatish tizimi” joriy etiladi.

Yana bir masala – pedagoglar malakasini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ma’lumki, muallimlar hozirgi vaqtda har 5 yilda malaka oshiradi. Bundan buyon ularning “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida o‘z malakasini uzluksiz oshirib borishi yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning o‘z fanini bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligidan kelib chiqib, toifa berish mezonlari ham qayta ko‘rib chiqiladi.

Jamiyatda o‘qituvchi kasbi eng nufuzli va obro‘li kasb bo‘lishi lozim. Muallimlarimiz bolalarga sifatli ta’lim berish va o‘z ustida ishlashdan boshqa narsa haqida o‘ylamasligi uchun davlat barcha sharoitlarni yaratib berishi zarur. Shu bois o‘qituvchi, murabbiy va metodistlar mehnatiga munosib haq to‘lash bo‘yicha boshlagan ishlar kelgusi yillarda ham davom ettiriladi. Buning uchun xalq ta’limi xodimlarini rag‘batlantirish hududiy jamg‘armalariga 330 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, 240 mingdan ziyod maktab o‘qituvchilariga sinf rahbarligi uchun ustama to‘lovlar 1,5 barobarga oshirilib, byudjetdan 400 milliard so‘m qo‘shimcha mablag‘ ajratiladi.

Maktab ta’limidagi islohotlar jamiyatda o‘qituvchilar maqomini oshirishdan boshlandi. Bunda ularning ish faoliyatini optimallashtirish, oylik maoshini bosqichma-bosqich oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali dars yuklamalarini qisqartirish rejalashtirildi.

Iqtidorli yoshlar uchun mutlaqo yangi turdagi Prezident hamda ijod maktablari tashkil etildi. Xalqaro fan olimpiadalari g‘oliblari va ularning o‘qituvchilariga (bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobaridan 500 barobarigacha) hamda respublika olimpiadalari g‘oliblari va ularning o‘qituvchilariga bazaviy hisoblash 30 barobaridan 50 barobarigacha bir martalik pul mukofatlari, o‘qituvchilar va ta’lim tashkiloti direktoriga oltin, kumush va

bronza medallari uchun tegishli ravishda 200, 175 va 150 foiz miqdorida ustama belgilandi.

O‘qituvchilar faoliyatiga oid statistika va hisobotlarni yuritish maqsadida 1482 umumiy o‘rta ta’lim muassasisda “Elektron kundalik” avtomatlashtirilgan avtomat tizimi joriy etildi.

Xususiy maktab ochish uchun litsenziya olish tartibining soddalashtirilishi hamda bunday maktablarga shohadatnoma va attestatsiyalar berish huquqining taqdim etilishi natijasida nodavlat umumta’lim muassasalari soni olti barovarga ortib 145 taga yetdi.

Oliy ta’limning qamrovi va sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Keyingi yildan boshlab oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko‘paytirib, 2 mingtaga yetkaziladi. A’lo baholarga o‘qiyotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun maxsus stipendiyalar joriy etiladi.

Hozirgi vaqtda yoshlar eng nufuzli oliygohlarga kirish uchun intiladi, lekin oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida bilimli va iqtidorli yoshlarni jalb qilish bo‘yicha raqobat yo‘q. Shu sababli xususiy oliygohlarga ham zarur mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasi berish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Oliygohlar va ta’lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkaziladi. Shuningdek, 187 ta texnikum ham o‘z yo‘nalishi bo‘yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktiriladi.

Nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlikni yanada kengaytirishimiz zarur.

Davlatning uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish ta’lim va o‘qitish siyosatini amalga oshishida maktabgacha ta’limni rivojlantirish borasida boshlangan islohotlar natijasi umumiy o‘rta ta’lim samaradoriligini oshirishda katta rol o‘ynamoqda.

Mazkur tizimda-ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari, tarbiyachisi va psixologi hisoblanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda ta’lim tarbiya samaradorligini boshqarish faqat va yana faqat yuqorida keltirilgan sub’ektlar zimmasiga yuklanadi. “Ilk qadam” dasturining mazmuni birinchi galda, bolalarda insoniylikni, fuqarolikni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar rivojlanish sohalarining asosiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan jismoniy va sog‘lom turmush tarzini shakllanishi; ijtimoiy hissiy rivojlanish; nutq, muloqot,

o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish kabilar o‘yin asosida tashkil qilinsada, uning maqsadi insonni sevish, ota-onaga mehr-muhabbat, vatanga sadoqat kabilar hisoblanadi. Bu murakkab vazifalarni amalga oshirish uchta jiddiy muammoni hal qilish bilan uzviy bog‘liqdir.

Ularning birinchisi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun hozirgi zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash masalasidir. Bugun mamlakatda bu masala bo‘yicha maxsus maktabgacha ta’lim pedagogika oliy o‘quv yurti tashkil etilmagan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ishlayotgan mutaxassislarni tayyorlash ishi mamlakatdagi turli universitet va institut fakultetlari va bo‘limlarida yaxlit, umumiylikka ega bo‘lmagan o‘quv rejalari va dasturlariga ko‘ra amalga oshirilmoqda. Agar maxsus tashkil qilinadigan maktabgacha ta’lim pedagogikasi oliy o‘quv yurti yangi talablar asosida shakllantirilgan zamonaviy uch yillik o‘quv reja asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil qilsa maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun zamon talabiga mos bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga erishgan bo‘lar edik. Chunki, Respublika Prezidenti aytganilaridek “qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”.

Maktabgacha ta’lim pedagogika oliy o‘quv yurtining faoliyati mutloq “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi asosida qurilishi kerak. Ushbu tashkilotda olib boriladigan o‘quv-tarbiya ishlari bog‘chalardagi singari o‘yin asosida tashkil qilinsa, talabalar o‘zlarini bog‘chadagi katta bolalar sifatida his etsa, o‘zlarini bog‘chadagi ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari sifatida bilsalar, o‘zlarini shunga ruhiy jihatdan tayyorlasalar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlash samaradoriligiga ancha-muncha erishgan bo‘lar edik.

Mavjud vazifani amalga oshirish bir qator tayyorgarlik ishlarini amalaga oshirishni talab qiladi . Bularning birinchisi, maktabgacha ta’lim pedagogika oliy o‘quv yurtiga kiruvchi abuturentlarni tanlash masalasidir. Ushbu oliygohga kiruvchilar bizning nazarimizda qalbdan, tabitan bolalarga mehr bera oladigan, mehr ko‘rsata oladigan, bolalar bilan ishlash o‘quviga ega bo‘lgan yigit-qizlar bo‘lishlari kerak. Buning uchun oliy o‘quv yurti xodimlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarning turli bosqichdagi xodimlari 9-10-11-sinf o‘quvchilari orasida kasbiy orentatsiya bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkiloti, uning hayoti, bolalar tarbiyasi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan bir talay qiziqarli ijodiy faoliyati haqida, sinfda va sinfdan tashqari ishlarida ushbu sohaga qiziqqan o‘quvchilar bilan bog‘chalarda qiziqarli tadbirlarni o‘tkazishlari kerak bo‘ladi. Tizimli amalga oshiriladigan mazkur tadbirlar maktab o‘quvchilarida ushbu kasbga nisbatan

ko‘nikma shakllantiradi. Bulardan tashqari maktabgacha ta’lim pedagogika oliy o‘quv yurtiga kiruvchilarni maxsus professional psixologik testlar orqali tanlashni joriy qilish kerak bo‘ladi. Chunki, mazkur o‘quv yurti o‘zining mohiyatiga ko‘ra nafaqat ta’lim tizimida, balki, jamiyat tizimida egallagan o‘rni, nufuziga ko‘ra kadrlarni tanlash, o‘qitish va ishlashga tayyorlashiga ko‘ra mutlaq alohida statusga egadir.

Ikkinchidan, ushbu oliy o‘quv yurtida ijtimoiy ma’naviy muhit korrupsiyadan mutlaq holi muhit bo‘lishi talab etiladi. Chunki, bu dargohni bitirganlar jamiyatimizning mutlaq yangi avlodini tarbiyalash bilan shug‘ullanadilar. Shuning uchun oliy o‘quv yurti jamoasidagi professor-o‘qituvchilar, tashkilot boshqaruvchilari butun javobgarlikni o‘z bo‘yinlariga olgan holda tanish bilishlik, yordamlashib yuborish, falonchi shaxsga aloqador talaba, men nimaga ega bo‘laman kabi qarashlardan mutlaq begonashlashgan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari ushbu oliy o‘quv yurtining talabalari ta’lim jarayonida maxsus tanlangan formada o‘qisalar bu holat ham ular uchun o‘zaro tenglik muhitini yaratishga ko‘mak beradi.

Uchinchidan, oliy o‘quv yurtidagi o‘quv rejasi va shu asosda tayyorlanadigan dasturlar maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarni inobatga olgan holda, hamda bolada ma’naviy me’yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan holda yaratilmog‘i kerak. Zamonaviy fan dasturlari bugungi kun uchun emas, balki, kamida 20 yil oldinni nazarda tutgan holda ishlanmog‘i kerak. Dastur mazmuni zamonaviy axborot texnologiyalarining eng so‘nggi modellari asosida yaratilib uning asosiy yo‘nalishi izlab topishga, ijodiyotga, mustaqil va tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilmog‘i kerak. Ushbu dasturlarni yaratishda asosiy qoida milliy o‘zligimizni bilish, uni qadrlash, uni takomillashtirish uchun ijodiy mehnat qilish tashkil qilmog‘i kerak. Shuning uchun, **“**milliy qadriyatlardan umuminsoniy qadriyatlarga” tamoyili yaratilayotgan dasturlarning nazariy metodologik asosi hisoblanishi kerak[4].

Maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan bugungi ta’lim-tarbiya jarayoni umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish va bunda milliy qadriyatlarni zamonoviy ruh bilan oziqlantirgan holda takomillashtirish asosida hayotiylik indekslarini planetar darajaga olib chiqishni talab qilmoqda. Bu sohada Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyevning moduli nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, balki rivojlangan mamlakatlar uchun ham andoza rolini o‘ynamoqda. Demak

[4] N.Mamatov “Tarbiyachi motivatsiyasi va kasbidan qoniqishi birligi”. “Innovatsiyalar va ta’limdagi islohotlar konteksida zamonaviy psixologiya” Toshkent 2019.

siyosatning planetar masshtabda shakllantirilishi uning alohida olingan bir mamlakatdagi uyushqoqligi va kuchini namoyish etadi.

Milliy qadriyatlarning umuminsoniy qadriyatlarga transformatsiyasi, umuminsoniy qadriyatlarning milliy qadriyatlar taraqqiyotiga faol ta'siri dialektikasi ob'ektiv jarayondir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar garmonyasi esa ijtimoiy idealdir. Ijtimoiy idealning gnoseologik asosini ongining borliqni ilg'ab inikos etishi va ushbu inikosda ideal natijani bevosita idrok etish alohida o'rin tutadi. Shu asosda ijtimoiy ideal idealni tashuvchi sub'ektlar oldiga idealga yetishishning aniq vazifalarini ishlab chiqish vazifasini yuklaydi. Bu vazifaning yechimi sub'ektning ob'ektiv va sub'ektiv imkoniyat parametrlarining ko'rsatkichlari hisobiga yaratiladi.

Bugun O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy hamda ma'naviy asoslari idealga erishish ko'rsatkichlariga mos suratda shakllantirilmoqda. Ayni vaqtda, yangi tizim oldiga bir qator tashkiliy va amaliy vazifalar ham qo'yilmoqda. Yangi bog'chalar vujudga kelmoqda, sharoitlar yangilanmoqda va hokozolar. Ammo Prezidentimiz Sirg'ali tumanida qurilgan yangi maktablarni ko'rgali borganlarida "menga yangi maktab binosi emas, menga yangi maktab kerak", - deganlaridek bugun O'zbekiston uchun yangi qurilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarda yangi dunyoqarashga ega bo'lgan tarbiyachilar, tashkilot rahbarlari va bolalar ta'lim-tarbiyasining yangi uslubi va uslubiyati kerak. Shulardan kelib chiqqan holda bugun biz mamlakatdagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini "Ilk qadam" dasturi bo'yicha olib bormoqdamiz. Bunda kichik maktabgacha yosh 3-4 yoshgacha, o'rta maktabgacha yosh 4-5 yoshgacha, katta maktabgacha yosh 5-6 yoshgacha maktabga tayyorlov yoshi 6-7 yoshdagi bollarga mo'ljallangan mashg'ulotlar besh yo'nalish bo'yicha - kommunikativ kompitensiya, o'yin kompitensiyasi, ijtimoiy kompitensiya va bilish kompitensiyasini shakllantirshga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonlari amalga oshirilgan. Mavjud dastur maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intelektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar asosida ijro etilmoqda.

O'tkazilayotgan mashg'ulotlarda milliy qadriyatlarimizning asosiyligi belgilovchilik rolini o'ynamoqda. "Ilk qadam" dasturining "Men" konsepsiyasi bo'yicha bolaga qo'yilgan talab shundan ibratki, bola o'zini o'ziga xos xususiyatlari bilan ijobiy shaxs sifatida qabul qiladi, mustaqil va o'z xatti harakatlariga javob beradi. Mazkur talab 3-4 yoshda bola o'zi haqida "Men" deb birinchi shaxs nomidan gapiradi, 4-5 yoshida esa o'z xoxish-istaklari qiziqishlarni bildiradi. 5-6 yoshida o'ziga yuklangan majburiyatlarni qabul qiladi va bajaradi, 6-7 yoshida mustaqillikka intiladi.

Bog‘cha bolalarida dastlabki milliy qadriyatlarni singdirish ularning ota-onalariga bo‘lgan mehr-muhabbatalarini oshirishdan boshlanadi. Bolaga oilada ota va ona tomonidan ko‘rsatiladigan tabiiy mehr va muhabbat bog‘chada tarbiyachi tomonidan davom ettirilishi va tarbiyachi tomonidan ota-ona haqidagi mehr tarbiyasining oila muhitida mustahkamlanishi ushbu jarayon samaradorligining ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan yosh farqlaridan kelib chiqqan holda tarbiyachining ota va ona qadriga bag‘ishlangan hikoyatning tahlili ahamiyatlidir.

Shu o‘rinda tarbiyachilar bozor munosabatlari, tadbirkorlikning salbiy oqibatlari haqida ham gapirib ayrim onalar o‘zlarining farzandalarini arzimagan pullarga sotib yuborayotganligini farzandfurishlarning ham bor ekanligini eslatib ketishlari kerak. Chunki, bolalikdagi tasavvur, bolalikdagi qarash, qiyin o‘zgaradigan tasavvur va qarashdir.

Shu o‘rinda ona qadri haqida gapirganda bizning milliy pedagogikamizda, xalq og‘zaki ijodiyoti asotirlarida, xalq dostonlarida yaratilgan obrazlarni hisli va hayajonli tasvirlash, muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda umumiy o‘rta maktab oldida quyidagi dolzarb vazifalar turibdi O‘quvchilarni kelgusi hayotga tayyorlash va ularga o‘z bilim va ko‘nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o‘rgatuvchi malaka talablarini sinflar kesimida ishlab chiqish, fanlararo o‘zaro aloqadorlik va sinflar kesimida davriylikka to‘liq rioya qilgan holda o‘quv dasturlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlash, yangi avlod darsliklarini o‘qituvchining metodik qo‘llanmasi, o‘quvchining mashq daftari va multimedia ilovasi bilan birga kompleks tarzda yaratish va nashr etish, o‘quvchilarning fan bo‘yicha egallagan bilimlari bilan bir qatorda savodxonlik, kompetensiya va shaxsiy sifatlarini baholash hamda kasblarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash tizimini joriy etish.

Pedagog xodimlarga barcha malaka toifalarini berish, shuningdek, talabgorlarni attestatsiyadan o‘tkazish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Bunda, pedagog xodimlarning oliy ma’lumot yoki qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganligi haqidagi diplomida ko‘rsatilgan tayyorlov, ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassislik yoki ixtisosliklarga mos keladigan fanlardan imtihonlar tashkil qilinadi va axborot tizimlarini qo‘llagan holda ularning faoliyat samaradorligi baholanadi, pedagog xodimlarga malaka toifalarini berish bo‘yicha navbatdagi attestatsiyadan o‘tkazganlik uchun yig‘im undirilmaydi, navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

2021-yil 1-yanvardan boshlab olis hududlarda joylashgan byudjet tashkilotlariga boshqa hududlardan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kelgan oliy ma’lumotli mutaxassislarga bazaviy hisoblash miqdorining 50

baravarida bir martalik boshlang‘ich yordam puli va uy-joylarni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravarida har oylik pul kompensatsiyasi beriladi[5].

Umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining oliy hamda professional ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirish hamda ishga joylashish ko‘rsatkichlari asosida direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan umumta’lim muassasalari rahbar xodimlarini rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yiladi.

6-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘rtasida interaktiv so‘rovnomalar o‘tkaziladi kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishi aniqlanib ularning ma’lumotlar bazasi yaratiladi

7-sinf o‘quvchilari uchun har oyda bir marta «Kasblar olamiga sayohat» mavzusida maxsus kurslar olib boriladi.

8-sinf o‘quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba «Mening kelajakdagi kasbim» mavzusida seminar-treninglar olib boriladi hamda o‘quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblarga yo‘naltiriladi.

9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar Maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlari olib boriladi;

Finlyandiyaning ta’lim sohasidagi tajribasini, shu jumladan o‘quv dasturlari, darsliklari, o‘qitish metodikalari va pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini hamda Finlyandiyaning ta’lim sohasidagi ijobiy tajribasini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga hamda Dasturiga joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha bugun mamlakatda jiddiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini «hayot davomida o‘qish» tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantiradi, xalq ta’limi xodimlarining kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturi ishlab chiqiladi, dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibi amaliyotga kiritiladi, xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayoniga kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinadi.

Mavjud qarorning innovatsiya ekanligi shundaki, birinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida gender tengligi bo‘yicha ta’lim va tarbiya beradigan tarbiyachilarning, psixoliglarning, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining o‘zlari gender tarbiyasi va ta’limi pedagogikasidan yaxshi tanish emaslar. Respublikamizdagi mavjud pedagogika universitet, pedagogika institutlarimizning maktabgacha ta’lim fakultetlari va yo‘nalishlarida 3 yil davomida o‘tiladigan

[5] Sh.M. Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabiylar kuniga” bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi so‘zlagan nutqi. 2020-yil 30-sentabr.

umumnazariy va maxsus fanlarimizni o‘qitish metodikasida gender tarbiyasi va ta’limi masalasi to‘liq kiritilmagan. To‘g‘rirog‘i ushbu o‘quv yurtlarini bitirgan mutaxassislarni gender ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yetarli kvalifikatsiyaga ega bo‘lgan mutaxassis deyish qiyin. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xizmat qilayotgan xodimlarga gender nazariyasi va amaliyotidan mashg‘ulot o‘tish, ularda gender sezgirligi va idrokini oshirish gender madaniyatini egallash va gender qarashlarini 3-7 yoshli bolalarga singdirish uslubiyati bilan qurollantirish o‘ziga xos innovatsion yondoshuvni talab qiladi.

Ikkinchidan, ushbu jarayonda maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari uchun o‘quv uslubiy va me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham yetarli darajada emas. Yaqinda qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” qonunda ham, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da ham, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, “Ilk qadam” o‘quv dasturida ham gender ta’limi va tarbiyasi haqida gapirilmagan. Shulardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizga, ko‘ra vazirlik tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda gender savodxonligini shakllantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida me’yoriy-huquqiy hujjat ishlab chiqsalar, ushbu masala samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lar edi. Ayni vaqtda, vazirlik yordamida gender ta’lim va tarbiyasi bilan bog‘liq darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa uslubiy ashyolar suv va havodek zarur.

Uchinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida asosan ayollar xizmat qiladi. Bugun ushbu tashkilotlarda jami xizmat qilayotgan xodimlarning 95 % ni ayollar tashkil etadi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi gender ta’lim-tarbiya femenistik xarakterga ega bo‘lib qolmoqda. Ya’ni, ayollar o‘zlarining ijtimoiy, jinsiy xususiyatlari, qarashlari, ideallari, xatti harakatlari, tartib-qoidalaridan kelib chiqqan holda ushbu tarbiyani amalga oshiradilar. Bola oilada asosan ona tarbiyasini oladi. Bog‘chada tarbiyachi tarbiyasini o‘zlashtiradi. Vaholanki, maktabgacha ta’lim tashkiloti bu jins tarbiyasidan tashqari tashkilotdir. Bunda o‘g‘il bolalar va qiz bolalar teppa-teng huquqlarga va ta’lim-tarbiya imkoniyatlariga ega. Lekin, ta’lim-tarbiya ayol tarbiyachilarimiz tomonidan olib boriladi. Bolalar uchun tarbiyada erkaklarning o‘rni va rolining o‘ziga xos ekanligini ham unutmaslik kerak.

To‘rtinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘ziga xos bo‘lgan ta’lim maskanidir. Bu maskanda tarbiyalanuvchilar 2 yoshidayoq o‘zlarining qaysi jinsga taaluqli ekanligini biladi va shundan kelib chiqqan holda, oilaning, bog‘chadagi muhitning, yaqin qarindosh urug‘larning ta’siri ostida o‘zlarida gender rollarini shakllantira boshlaydi. Bu benihoya nozik davr. Bu davrda bolalar ko‘rgan va eshitganlari bolaning ong ostida jamlanadi va bu informatsion bank uning

umrining oxirigacha belgilovchilik xarakterini o‘ynab qoladi. Shuning uchun maktbtabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar juda katta javobgarlikni his qilgan holda ta’lim tarbiya ishiga kirishmoqlari kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan ta’lim-tarbiyaning har birida ularning yoshi, psixologik rivoji nuqtai nazaridan gender ta’limi va tarbiyasini amalga oshirishning o‘zi bir ijodiyotdir.

O‘qituvchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari ukuv reja va dasturlari mazmunida gender masalalari bilan bog‘liq mavzularga e’tibor karatganda erkak va ayollarning teng ishtirokini ta’minlash va ular fikrlarini teng baholash, institutsional o‘qitish usullari, boshqaruv, menejment, tadqiqot shakllarini teng tanlash imkoniyatini joriy etish yaxshi natijalar beradi deb hisoblaymiz.

Odam tug‘ilishi bilan ijtimoiy muhit ta’sirida ijtimoilashuv jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida salbiy va ijobiy sifatlarni shakllantiraboshlaydi. Ayni vaqtda, ushbu jarayonda oila, ko‘cha, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim, mehnat jamoalari shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy madaniy institutlar sifatida o‘z ta’sirlarini o‘tkazaboshlaydi. An’anaviy jamiyatda shaxsning har tomonlama rivojlanishdan manfaatdor bo‘lgan siyosiy tashkilotlar asosan tarbiyalanuvchilarning keyingi bosqichlariga ko‘proq ahamiyat beradilar. Ushbu maqsadda katta miqyosdagi iqtisodiy, intelektual va ma’naviy resurslar yo‘naltiriladi. Taraqqiyotning bugungi davri mazkur steriotipni qayta qurishni, ya’ni tarbiya uchun sarf qilinishi kerak bo‘lgan resurslarning 70 foizdan oritqrog‘ini bolalarning maktabgacha yoshidagi shakllanish davriga qaratilishi lozimligini tasdiqlamoqda. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasiga oid tadqiqotlar shuni isbot qilmoqdaki, ikki yoshdan boshlab kichik yoshdagi bolalarga yo‘naltirilgan informatsiyalar ularning ong osti borlig‘idan o‘rin oladi va u ma’lum darajada shaxsning ongsiz va ongli faoliyatini uning umrining oxiriga qadar boshqarib boradi.

O‘quvchi-yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlash, hamda o‘smirlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish, turli xil zo‘ravonlik ko‘rinishlarining oldini olish, suitsidal holatlarga moyilligi bo‘lgan o‘quvchilarni barvaqt aniqlash va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish, xalq ta’limi tizimida kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik xizmat ko‘rsatish, ilg‘or tajribalarga asoslangan kasb-hunarga yo‘naltirishning zamonaviy shakl va uslublarini joriy etish yo‘lga qo‘yildi.

Maktablarda psixologik xizmatni takomillashtirish, psixologlarni metodik qo‘llab-quvvatlash va professional rivojlantirish, xalq ta’limi xodimlarining pedagogik faoliyatga shaxsiy muvofiqligini o‘rganish orqali olib boriladi.

Psixologiya sohasi bo‘yicha kadrlarni tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalariga o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda takomillashtirishda, ularni ish beruvchilarning talablariga moslashtirish bo‘yicha ishlar boshlanib ketdi.

Davlatning ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishini kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish tashkil etadi.

Professional ta’limning ta’lim dasturlari va o‘qitish materiallari to‘plamlarini mehnat bozorining talablari, tarmoq malaka ramkalari va professional standartlar asosida ish beruvchilar bilan birgalikda ishlab chiqsildi va tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda, kasb-hunar maktablarini hududlar bo‘yicha joylashuvi hamda tayyorlanadigan ishchi kasblardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish uchun ish beruvchilarga biriktirildi, professional ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning metodik ta’minotini mustahkamlash, ularni yangi ta’lim resurslari bilan ta’minlab borish imkoniyatini beradigan alohida elektron platforma ishlab chiqsildi va ta’lim dasturlari, o‘qitish materiallari hamda boshqa uslubiy qo‘llanmalardan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatlari yaratildi, professional ta’lim muassasalari guruh rahbarlarini tayyorlash uchun o‘quvchilar bilan ishlash, ular psixologiyasini o‘rganish va metodik ta’minlashga qaratilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Davlat rivojlangan davlatlarning IT-texnologiyalari, robototexnika, qurilish, turizm, transport, energetika va boshqa sohalar bo‘yicha yetakchi professional ta’lim muassasalari filiallarini tashkil qilish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmoqda, professional ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida professional ta’lim tashkilotlarini tashkil etish choralari ko‘rilmoqda.

Oliy ta’lim tashkilotlarining pedagogik bo‘lmagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida 2021-2022 yildan boshlab tahsil olayotgan talabalar uchun ixtiyoriy ravishda o‘zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullari ishlab chiqiladi va amaliyotga kiritildi.

Barcha oliy ta’lim tashkilotlarida axborot-resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o‘quv-uslubiy va boshqa qo‘llanmalar raqamli formatga o‘tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantiriladi hamda ular bo‘yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimi joriy qilinadi, har bir fan kesimida ma’ruza, amaliy

(seminar) va laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ishlar bo‘yicha elektron modullar ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

Ta’lim sifatini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, bitiruvchilarning bandligini ta’minlash, pedagog xodimlar va olimlarning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan faoliyat ustidan ta’sirchan parlament nazorati yo‘lga qo‘yiladi.

Oliy ma’lumot olaman, o‘z ustimda ishlab, ilmli bo‘laman, degan, yuragida o‘ti bor, jo‘shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kelgusida 50-60 foizga yetkazish zarur.

Bu borada shuni unutmaslik kerakki, oliy ta’lim qamrovini oshirish to‘lov kontraktiga bog‘liq bo‘lib qolmasligi zarur. Shuni hisobga olib, oliy o‘quv yurtlariga talabalar qabul qilish davlat grantlarini 2 barobar ko‘paydi.

Oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarini ham ma’lum darajada optimallashdi. Bunda asosiy e’tibor o‘qishga kirish jarayonlarini soddalashtirish, oliy o‘quv yurtlarida chinakam bilim va tarbiya olishga qaratilmoqda. Misol uchun, ona tili bo‘yicha bilimni baholashning milliy test tizimi yaratildi. Yoshlar istalgan vaqtda imtihon topshirib, tegishli guvohnoma olsa, oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirayotgan paytda ona tili bo‘yicha qayta sinovdan o‘tishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi.

Oliy ta’lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirilmoqda, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqilmoqda. Mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartirildi.

Oliy ta’limda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish jarayoni boshlanib, bugun 10 ta oliy o‘quv yurti ushbu modul tizimi bo‘yicha ishlamoqda. 2020-yildan pedagogik ta’limning 6 ta yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddati 3 yil qilib belgilandi.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifati samaradorligini takomillashtirish.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an’analarimizga, ilg‘or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta’lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar shu yo‘lda safarbar etilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan bo‘lib ushbu qonun 11 bob va 75 moddadan iborat.

Qonun loyihasini takomillashtirish jarayonida 238 ta normaga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Loyihadan idoraviy ruhdagi bir necha normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo‘llashga ta’sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish oqibatida 123 ta norma chiqarib tashlandi. Ularning o‘rniga 54 ta yangi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi normalar kiritildi. Ortiqcha ma’muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga kiritilgan 7 ta moddadan butunlay voz kechilib, aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi 9 ta yangi modda kiritildi.

Qonun loyihasiga inklyuziv ta’lim tushunchasi ham singdirildi. Bu har bir bolaning ta’lim olishdagi teng huquqliligini ta’minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shuningdek, loyihada amaldagi qonunda, umuman, qonunchilikda ko‘zda tutilmagan yangi qoidalar - yurtimizda yoshidan qat’i nazar, katta yoshdagilar umri davomida bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlab borish imkoniyatlari ham qonun bilan mustahkamlandi.

Ushbu Qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan. Shu bilan birga Qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi - davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari - davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari - ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

malaka - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta’lim tashkiloti - davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim - ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim kampusi - yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob’ektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari - ta’lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi - ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

“Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonunga asosan ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

-ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

-ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

-ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

-ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

-ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

-ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

-ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

-o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;

-davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

-o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

-insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;

-jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

-ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

-bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;

-ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;

-ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Ushbu qonunda tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega ekanligi hamda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmasligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Ushbu qonunning 7-moddasida Ta’lim turlari haqida ma’lumot berilib, bular quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim va tarbiya,umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’lim.

Qonunning 8-moddasida Maktabgacha ta’lim va tarbiya haqida ma’lumot beriladi. Unda Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir deyiladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Qonunning 13-moddasi Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi.

Qonundagi yana bir o‘zgarishlardan biri bu 17-modda bo‘lib, unda Dual ta’lim haqida to‘xtalib o‘tiladi. Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Dual ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mazkur Qonunga mutloqa yangi moddalar jumladan, 20-modda Inklyuziv ta’lim, 21-modda Eksternat tartibidagi ta’lim, 22-modda Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash kabi moddalar kiritilgan.

Qonunga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga ko‘ra:

ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

ta’lim sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta’minlaydi;

ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qiladi;

ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, pedagog kadrlarni va ilmiy xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish, nodavlat ta’lim tashkilotlariga ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyalar (bundan buyon matnda litsenziya deb yuritiladi) berish, ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarga apostil qo‘yish tartibini belgilaydi;

pedagogik kadrlarni ta’lim tashkilotlariga ishga qabul qilish va ular faoliyatini baholash tartibini belgilaydi;

xorijiy davlatlarning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga doir ruxsatnomalar beradi;

xorijiy davlatlarda olingan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi;

davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlaydi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar berish tartibini belgilaydi;

eksternat tartibida o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini tasdiqlaydi;

faqat davlat ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini tasdiqlaydi;

davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlariga qabul qilish tartibini belgilaydi;

davlat oliy ta’lim muassasalari rektorlarini, shuningdek davlat ishtirokida tashkil etiladigan oliy ta’lim tashkilotlari (davlat ulushi bo‘lgan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari, qo‘shma ta’lim muassasalari, davlat-xususiy sheriklik asosida

tashkil etiladigan ta’lim muassasalari va boshqalar) rektorlarini (rahbarlarini) lavozimga tayinlaydi hamda egallab turgan lavozimidan ozod etadi;

ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim tashkilotidan boshqasiga ko‘chirish, shuningdek ularni o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibini belgilaydi;

ta’lim tashkilotlari reytingini aniqlash tartibini belgilaydi;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tartibini belgilaydi;

mehnat bozori talablarini prognoz va tahlil qilish asosida ta’lim tashkilotlarida kadrlarni tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmalarini shakllantiradi;

ta’lim tashkilotlariga nisbatan moddiy-texnik, infratuzilmaviy va parametrik talablarni belgilaydi;

darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish tartibini, shuningdek ularni yetkazib berishga va ulardan ta’lim tashkilotlarida foydalanishga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga:

ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan, shuningdek ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazadi;

ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonining sifati monitoringini amalga oshiradi;

maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga lavozimlar va malaka toifalarini berish jarayonini nazorat qiladi hamda unda ishtirok etadi;

nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziyalar beradi;

ta’lim tashkilotlarining reytingini aniqlaydi;

aniqlangan ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishlari yuzasidan tegishli davlat boshqaruvi organlariga va ta’lim tashkilotlariga taqdimnomalar kiritadi.

Ta’lim inspeksiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining ta’lim sohasidagi vakolatlariga:

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarni aniqlash, tanlash, o‘qitish va tarbiyalash sohasida davlat siyosatini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun davlat ta’lim standartlarini tasdiqlaydi;

davlat ta’lim standartlariga muvofiq Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yagona tarzda muvofiqlashtirishni hamda unga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi, mazkur maktablarda bino va inshootlarni ekspluatatsiya qilish ishlarini monitoring qiladi va muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Qonunning 26-moddasida Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bular quyidagilardir.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlaridir.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari o‘z vakolatlari doirasida:

ta’lim sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

ta’lim sohasidagi tarmoq davlat dasturlarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi;

ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlik qilishni amalga oshiradi;

davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standarti) va davlat ta’lim talablarida kadrlarning ma’lumoti darajasiga va kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo‘yilgan talablarning ta’lim tashkilotlari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

davlat ta’lim standartlari (shu jumladan maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartini) va davlat ta’lim talablari ishlab chiqilishini ta’minlaydi va ularni tasdiqlaydi;

ta’lim oluvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini baholash tartibini belgilaydi;

professional ta’limning kasblar va mutaxassisliklar, oliy ta’limning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, shuningdek bilim sohalari va ta’lim sohalari ro‘yxatini belgilaydi;

ta’lim-tarbiya jarayoniga o‘qitishning ilg‘or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta’minlaydi;

ta’lim tashkilotlarida kadrlarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, o‘quv dasturlarini takomillashtiradi;

o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va nashr qilishni tashkil etadi;

o‘zlashtirishni baholashga, o‘quv jarayonini, ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlaydi, shuningdek eksternat tartibida ta’lim oluvchilarning toifalarini belgilaydi;

davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

ta’lim tashkilotlarining rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etadi;

ta’lim tashkilotlarida moddiy-texnika resurslaridan foydalanishga doir talablarni ishlab chiqadi;

ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlatning maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini takomillashtirish siyosati negizida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni yotadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonunning birinchi bobida ushbu qonunning maqsadi maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat eknligi ta’kidlanadi.

Qonunning ikkinchi moddasida Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari deb nomlanib, unda maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratligi ta’kidlanadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Qonunda ko‘rsatilganidek maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi o‘z ichiga maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ta’lim berishning muqobil shakllari, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni oladi va ular umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti, inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti, qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotini o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti kamida besh yilda bir marta qayta ko‘rib chiqiladi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta’lim va tarbiya berish sohasidagi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek maktabgacha ta’lim tashkilotlarini loyihalashtirishda, qurishda, jihozlashda va ularning faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi shart.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi bolani to‘laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini; bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlikni, bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlari va an’analari bilan tanishtirishni, bolaning ijtimoiy moslashuvini, alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan pedagogik-tuzatish (korreksiyalash) va tibbiy-psixologik ishlar amalga oshirilishini, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashni ta’minlashi kerak.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga (korreksiyalashga) hamda reabilitatsiya qilishga muhtoj bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo‘yicha amalga oshiriladi[6].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim berish tili «Davlat tili to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv yili joriy yilning 2-sentabridan keyingi yilning 31-mayigacha bo‘lgan davrni, yozgi sog‘lomlashtirish davri joriy yilning 1-iyunidan 31-avgustigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Nazorat savollari

1. Davlatni maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini oshirish siyosatini maqsadi nima?

2. Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim va o‘qitish sifati samaradorligini oshirish mexanizmlarini yoritib bering?

3. Uzluksiz ta’lim tizimida MTT bilan o‘rta, o‘rta maxsus, oliy ta’lim bir-biri bilan nimalar orqali bog‘langan?

[6] O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni 2019-yil 16-dekabr.

Savol-javob

1. “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunga asosan ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari nimalardan iborat?

Ta’lim ustuvorligining tan olinishi, ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi, ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi.

2. Dual ta’limni tashkil etish tartibi qaysi vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi?

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

3. Ta’lim olish huquqini amalga oshirish nima orqali ta’minlanadi?

Ta’lim olish uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish orqali

IV. O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI

1	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi nechta ustuvor yunalishdan iborat?	5 ta	7 ta	4 ta	6 ta	1
2	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 3-ustuvor yunalishi qanday nomlanadi	Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish	Har bir insonga o’z salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish	Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatiga davlat boshqaruvini tashkil etish	Barqaror iqtisodiy o’sish orqali aholi farovonligini ta’minlash	1
3	Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidabelgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun nechta maqsad ko‘zlangan	100 ta	110 ta	90 ta	75 ta	1
4	Uchinchi Renessans, yangi Uyg‘onish davrining ustunlari keltirilgan javobni belgilang.	Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz, ota-onalar	Tarbiyachi, muallim, professor, va ilm ahli	Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimiz	Maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar, ziyolilar va ota-onalar	1
5	Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda katta ishonch kimlarga bildiriladi.	Ziyolilarga	Xalqimizga	Yoshlarga	Ota-onalarga	
6	Uchinchi Renessansning to‘rt uzviy halqasi ustunlari keltirilgan javobni belgilang	Maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalar	Maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi	Maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, o‘rta maxsus va professional ta’lim oliy ta’lim tizimi	Oila ta’limi, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimi	
7	Mamlakatimiz boshqaruv tizimida ayollarning ulushini necha foizga yetkazildi	33 foizga	30 foizga	35 foizga	38 foizga	1
8	Mamlakatimizda urbanizatsiya darajasini 2025-yilga qadar necha foizga yetkazish belgilangan.	40 foizga	50 foizga	30 foizga	60 foizga	1
9	Ma’muriy islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad nima	Zamonaviy ixcham va professional ijro	ijro organlari tizimini yanada kengaytirish	zamonaviy ixcham va professional	ijro organlarining vakolatlarini	1

		organlari tizimini yaratish		parlamentni yaratish	yanada kengaytirish	
10	Jamiyatdagi barcha ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevor nima	Ma’naviyat	Ma’rifat	Iqtisod	Innovatsiya	1
11	Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning nechanchi moddasida Maktabgacha ta’lim va tarbiya haqida ma’lumot beriladi	8-moddasida	7-moddasida	9-moddasida	10-moddasida	1
12	Bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilda necha foizga yetkazish belgilangan	60-70 foizga	50-60 foizga	40-50 foizga	30-40 foizga	1
13	O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 17-moddasi nimaga bag‘ishlanadi.	Dual ta’lim	Inklyuziv ta’lim	Eksternat ta’lim	An‘anaviy ta’lim	1
14	Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri qachon qabul qilingan?	2020 yil sentabr	2020 yil oktabr	2020 yil avgust	2020 yil may	1
15	Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?	2019 yil dekabr	2019 yil may	2019 yil oktabr	2019 yil iyun	1
16	Yurtimizda 30-iyul sanasini qaysi kun deb e’lon qilingan	“Xalqlar do‘stligi kuni”	“Yoshlar kuni”	“Xalqaro bag‘rikenglik kuni”	“Xalqaro bolalar kuni”	1

V. ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2023-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ-4312-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-60-son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni.
9. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”.–T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017-yil.
10. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. –T.: “O‘zbekiston”, 2018-yil.
11. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”. –T.: “O‘zbekiston”, 2018-yil.
12. Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘ hayoti yorug‘ kelajagi farovon bo‘ladi”. –T.: “O‘zbekiston”, 2019-yil.
13. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. –T.: “O‘zbekiston”, 2021-yil.

http://www.gov.uz
http://www.lex.uz
http://www.mdo.uz
http://mdomoi.uz

VI. TARQATMA MATERIALLAR

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari

Toifasi _____ GURUH

Tinglovchilar Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga oid zaruriy bilimlarni o‘zlashtirishi uchun mavzuni diqqat bilan tinglaydi kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi, quyidagi sxema asosida o‘zining mustaqil fikrini bildiradi.

№	Guruh a’zolarining F.I.Sh	(ha, ijobiy)	- (yo‘q, salbiy)
1			
2			
3			
4			
5			
6			
7			
8			
9			
10			
11			
12			
13			
14			
15			
16			
17			
18			
19			
20			
21			
22			
23			
24			
25			

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

Toifasi _____ GURUH

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo‘yicha savollar beriladi	**Guruhlar**		
	1-guruh	**2-guruh**	**3-guruh**
1.Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni sanab bering			
2.Taraqqiyot strategiyasining 39-maqsadi haqida ma’lumot bering ?			
3.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yo‘nalishlarini sanab bering?			

Tushunchalar tahlili jadvali:

Tushunchalar	Mazmuni
Barqarorlik	
Qonun ustuvorligi	
Millatlararo totuvlik	
Davlat dasturi	
Taraqqiyot strategiyasi	
Uzluksiz ta’lim	
Ta’lim tizimi	
Bag‘rikenglik	
Investitsiya	
Aholi salomatligi	
Ijtimoiy-siyosiy faollik	

Konseptual jadval metodi

	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	**2-belgi (tavsif)**	**3-belgi (tavsif)**
Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini mazmunini yoritib bering			

Konseptual jadval metodi

	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	**2-belgi (tavsif)**	**3-belgi (tavsif)**
“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yunalishlari haqida ma’lumot bering			

VII. ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

Aholini ijtimoiy himoyalash – aholini bozor iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarning aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga ta’sirini yumshatish.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya’ni, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvati.

Barqarorlik – narsa va hodisalarning amal qilishi va rivojlanishdagi o‘ziga xos muayyanlik holati.

Vatan ravnaqi – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo’lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oyadir

Davlat budjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Diniy bag‘rikenglik – xilma-xil diniy e’tiqodga ega bo’lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo’lida hamkor va hamjihat bo’lib yashashi

Ijtimoiy adolat – jamiyat barqaror va to‘laqonli rivojlanishi uchun o‘ta zarur omildir. U birinchidan, shaxs, jamiyat, davlat aloqadorligida tenglik va o‘zaro hamkorlikni taqozo etadi. Ikkinchidan, mazkur tamoyil shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy ne’matlardan bahramand bo‘lishda teng huquqli bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan mezonlar va kafolatlarning mavjudligini bildiradi. Ijtimoiy adolatni ta’minlash xar bir huquqiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Inson omili – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jixatni o‘z ichiga oladi. Birinchi jihat O‘zbekistonda jamiijtimoiy tuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash, nafaqa bilan ta’minlash tizimini, aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat.

Inson huquqlari – kishilarning yashash va faollashib borishi uchun ularga berilgan huquqlardir.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat’iy hukmron bo‘ladi. Ya’ni hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo‘ysunmasligi mumkin emas, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi; uningbarcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak

Millatlararo totuvlik – muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishi

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakli.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari – davlatga qarashli bo‘lmagan, ammo ma’lum qonunlar yoki me’yoriy hujjatlarga bo‘ysungan holda faoliyat ko‘rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Saylov huquqi – ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchisi, saylovni tashkil etish va o‘tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me’yorlar yig‘indisidir; ikkinchi ma’nosi fuqarolarning saylov huquqi, ya’ni ovoz berish, saylanish, saylov davrida va boshqa tadbirlarda ishtirok etishdir.

Sektor – institutsion birliklar yig‘indisi bo‘lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funksiyalari bir xil bo‘ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o‘xshashib ketadi.